2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 94 (1693), 2026-yil 10-may, yakshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI G‘ALABANING 81 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI TADBIRLARDA ISHTIROK ETDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-9-may kunlari amaliy tashrif bilan Moskvada bo‘ldi.**

Davlatimiz rahbari 9-may kuni Moskva shahrida Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 81 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etdi.

Qizil maydonda G‘alaba paradi bo‘lib o‘tdi. Unda Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Laos Prezidenti Txonglun Sisulit, Malayziya Podshohi Sulton Ibrohim va boshqa xorijiy delegatsiyalar rahbarlari ham qatnashdi.

Ikkinchi jahon urushidagi G‘alaba millionlab insonlarning mislsiz jasorati, matonati va fidoyiligi evaziga qo‘lga kiritilgan buyuk tarixiy voqeadir. Bu umumiy G‘alabaga janggohlarda va front ortida chinakam qahramonlik ko‘rsatgan O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqining ham munosib hissasi bor.

Urush arafasida respublikamiz aholisi 6 million nafardan ziyod edi. Sinovli yillarda qariyb 2 million nafar o‘zbekistonlik frontga safarbar etildi. Qonli janglarda 538 mingdan ortiq yurtdoshimiz halok bo‘ldi, 158 mingdan ziyodi bedarak yo‘qoldi.

Jasorati, mardligi va harbiy mahorati uchun O‘zbekistonning 214 mingdan ortiq askar va ofitserlari jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi.

301 nafar yurtdoshimizga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi, yana 70 nafari “Shon-sharaf” ordenining to‘liq kavaleri bo‘ldi.

O‘zbekiston xalqining front ortidagi fidokorona mehnati ham G‘alabaga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Respublikamiz frontning ishonchli tayanchiga aylanib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, qurol-yarog‘ va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib berdi. Qisqa muddatda O‘zbekiston hududida 170 dan ortiq evakuatsiya qilingan korxona joylashtirilib, mudofaa sanoatining barqaror ishlashi ta’minlandi.

Urushning og‘ir yillarida xalqimiz insonparvarlik va bag‘rikenglikning yuksak namunasini ko‘rsatdi. Frontga yaqin hududlardan evakuatsiya qilingan 1,5 milliondan ortiq inson, jumladan, 250 mingdan ziyod yetim bolalar O‘zbekistonda boshpana topdi. Mehr-oqibat, g‘amxo‘rlik, nochorlarga yordam qo‘lini cho‘zishga hamisha tayyorlik xalqimizning ma’naviy kuch-qudrati va olijanobligining yorqin ifodasi bo‘ldi.

Bugun mamlakatimizda urush qahramonlari va front orti mehnatkashlarining xotirasini abadiylashtirish, faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida barpo etilgan muhtasham “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi ajdodlar ko‘rsatgan qahramonlik va matonatga chuqur ehtirom ramziga aylangan.

Parad yakunlanganidan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Prezidenti Vladimir Putin va boshqa yetakchilar bilan birga Moskvadagi Aleksandr bog‘ida joylashgan Noma’lum askar qabriga gul qo‘ydi.

Ushbu yodgorlik G‘alaba yo‘lida jon fido qilgan millionlab askarlar, shu jumladan, O‘zbekiston farzandlari xotirasiga ehtirom ifodasi bo‘lib, Vatan himoyachilarining matonati, qahramonligi va fidoyiligi ramzi hisoblanadi.

Marosim bir daqiqalik sukut, faxriy qorovul va harbiy orkestrning tantanali yurishi bilan yakunlandi.

Davlatimiz rahbari Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso, Malayziya Podshohi Sulton Ibrohim va Laos Prezidenti Txonglun Sisulit bilan ham suhbatlar o‘tkazdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

**O‘zA**

## INSON QADRI – ULUG‘, XOTIRASI – BARHAYOT




**Mamlakatimizda o‘tganlar xotirasini yod etish, Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi kurashlarda qurbon bo‘lgan ota-bobolarimiz, istiqlol davrida vatanimiz mustaqilligi himoyasi yo‘lida jon fido etgan mard o‘g‘lonlarimiz xotirasini yod etish ma’naviyatimizning ajralmas bo‘lagiga aylandi.**

Ayniqsa, oxirgi to‘qqiz-o‘n yilda keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, oramizda sog‘-salomat yashab kelayotgan urush va mehnat faxriylariga, jonkuyar vatandoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish borasidagi ishlar ko‘lami yanada kengaydi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat, jumladan, xalqimiz boshiga qanday og‘ir azob-uqubat va talafotlar, behisob qurbonlar keltirgani yaxshi ma’lum. Unda qatnashgan 2 millionga yaqin o‘zbekistonlikning 540 mingga yaqini halok bo‘lgani, 158 ming nafari bedarak yo‘qolgani, 60 mingdan ziyodi nogiron bo‘lib qaytganini xalqimiz hech qachon yodidan chiqarmaydi.

Davomi 2-betda

## DORILAMON KUNLARDA YASHASH ZAVQI

### YANA YIGIRMA YASHAR YIGIT BO‘LGIM KELADI




**Men baxtli insonman. Urush jahannamidan tirik chiqib, farzandlar tarbiyalab, ularning kamolini, davlatimiz mustaqilligini, hozirgi obodlik, el farovonligini ko‘rib, dorilamon kunlarda yashayapman. Keyingi yillarda mamlakatimizda katta o‘zgarish bo‘ldi. Bu yil 104 yoshni qarshi oldim. Aholi farovonligi, shahar va qishloqlar obodligini ko‘rib, umrimga umr qo‘shilmoqda.**

Davomi 2-betda

## HAYOTGA ISHONCH BILAN YUZLANISH BAXTI

**Kutilmagan falokat ro‘y berganida Asror 11 yoshda edi. Bir oz o‘yinqaroqligimi yoki e’tiborsizligidan yuz bergan ayanchli hodisa sabab bir qo‘lidan ayrilib qoldi. Yosh bola ikkinchi guruh nogironi sifatida ro‘yxatga olindi. Davolanib, maktabga chiqqach, munosabatlar, xatti-harakatlarda o‘zini ojiz seza boshladi.**

Tengdoshlarining boshqacha qarashlari unga yomon ta’sir qilardi. Gohida ayrimlar bilan tortishib qolganida ustozlari uning tarafini olishi ham g‘ashini keltirar, chunki jismoniy imkoniyati cheklanganligini eslatishgandek tuyulaverardi. Vaqt o‘tishi bilan bu holatga ko‘nika boshladi. Bir qo‘lda bo‘lsa ham u-bu ishlarni bajarib ketaverdi.

* * *

O‘rta maktabni tamomlaganda Asror texnikani uncha-muncha tushunardi, shu sababdanmi, ba’zan otasining nosoz mototsiklini tuzatishni o‘ylab qolardi. Rosa urinib ko‘rib eplolmadi. O‘rtog‘i ko‘magida mototsiklni ustaga olib borib, uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turdi. Qisqa vaqtda texnika soz bo‘ldi. Ertasi kuni Asror katta ko‘chada mototsiklni bemalol boshqarib yurganini ko‘rganlar hayron qoldi. Axir bir qo‘lda ikki balonli texnikani boshqarish oddiy ish emas. Asosiysi, shundan keyin uncha-muncha ishni uddalashi mumkinligiga ishondi.

Davomi 2-betda

Dunyoqarash evrilishi

## UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI AYNAN MAKTABLARDA QO‘YILADI



**Keyingi yillarda O‘zbekistonda juda ko‘p yangilik va o‘zgarishlar, ortga qaytmas islohotlar, bir-birini takrorlamas bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Ularning barchasini kuzatib, xabardor bo‘lib, natijasini tahlil etish ancha mehnat talab qiladi. Prezidentimizning ba’zi sohalar bo‘yicha chiqargan qator farmon va qarorlari hamda tashabbusi bilan tub islohotlar, yangilanishlar amalga oshirildi, samarador mexanizmlar hayotga tatbiq etildi. Bu tarmoqlar, sohalar bilan birga yurtdoshlarimizning munosabati, dunyoqarashini ham o‘zgartirib yubordi.**

Dunyoqarash o‘zgarmasa, dunyo o‘zgarmaydi, deyishadi. Islohotlar ham O‘zbekistondagi ijtimoiy hayot o‘zanini butkul yangi yo‘nalishga burib yubordi. Atoqli yozuvchi Jorj Bernard Shou “O‘zgarishsiz taraqqiyot mumkin emas va o‘z fikrini o‘zgartira olmaganlar hech narsani o‘zgartira olmaydi”, deb aytgan edi. Davlatimiz rahbari ham islohotlarni, avvalo, yurtdoshlarimizning fikrini o‘zgartirish, dunyoqarashini kengaytirishdan boshladi.

Birgina misol, xalqimizning ta’lim sohasi, ilm-ma’rifatga bugungi munosabati bundan o‘n-yigirma yil oldingidan butkul farq qiladi. Joriy yil 24-fevral kuni Prezidentimizning yoshlar bilan muloqotida O‘zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng yuqori sur’atda rivojlanayotgan davlat deb e’tirof etilgani ma’lum qilindi. Yoshlarning bunday e’tirofga sazovor bo‘lishi keyingi yillarda ta’lim sohasi, xususan, O‘zbekistonning salkam 6,5 million o‘g‘il-qizi o‘qiydigan maktab ta’limidagi yangilanishlar hosilasidir.

Davomi 5-betda

## “NARPAY TAJRIBASI”

### barcha tuman uchun dasturulamal bo‘ladi

**Narpay tumanida bugun 235 mingdan ortiq kishi istiqomat qiladi. Geografik tuzilish jihatidan janubi-g‘arbiy qismi cho‘l va tekisliklardan iborat bo‘lsa, markaziy hamda shimoli-sharqiy qismlarida tog‘oldi relyeflari mavjud. Aholining asosiy qismi qishloq joylarda yashaydi, iqtisodiy faoliyat esa qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va kichik sanoat tarmoqlariga tayanadi.**

Prezident tashrifidan so‘ng




Tuman viloyat markazidan taxminan 100-110 kilometr uzoqlikda joylashgan. Transport infratuzilmasi nisbatan rivojlangan, hududdan xalqaro va ichki ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari o‘tadi. Bu esa iqtisodiy va logistika aloqalarini rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat. Hududning iqtisodiy tuzilmasi so‘nggi yillarda diversifikatsiyalashib, sanoat, xizmatlar va qishloq xo‘jaligi bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlarga aylanmoqda.

Joriy yil 18-mart kuni davlatimiz rahbari Samarqand viloyatiga tashrifi doirasida Narpay tumanida bo‘lib, hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yangi loyihalar hamda aholi kayfiyati, shuningdek, kelgusi rejalar taqdimoti bilan tanishgan edi. Shu yerning o‘zida Prezidentimiz raisligida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tgan va unda Samarqand ishsizlik, kambag‘allik, investitsiya va eksport kabi barcha yo‘nalishda namunaviy viloyat bo‘lishi shartligi qayd etilgandi.

Davomi 3-betda

Keyin urush boshlanib ketdi. Frontga ketayotganimda 19 yoshda edim. Eh-he, urush olovlari qancha oilalar yostig‘ini quritdi, shahar va qishloqlarni vayron qildi. Akam Rahmonjon bilan harbiy qismda uchrashganman. U boshqa frontda jang qilib, og‘ir yaralanganidan so‘ng uyga qaytgan.

YANGI O‘ZBEKISTON
2026-yil 10-may, 94-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# DORILAMON KUNLARDA YASHASH ZAVQI

## YANA YIGIRMA YASHAR YIGIT BO‘LGIM KELADI

Boshlanishi 1-betda

Bolaligimiz, ocharchilik, qahatchilik yillariga to‘g‘ri kelgan. Bir tishlam zog‘ora non yegan kishiga havas bilan qarardik. Ota-onam tirikchilik, bir burda non topib yeyish ilinjida Norin tumanidagi To‘da qishlog‘iga borib qolgan. Men o‘sha yerda tug‘ilganman. Bolaligim nihoyatda qiyinchilik bilan o‘tgan. 11-12 yoshimdan kolxoz ishiga qarashganman. Bir kaft un topsak, onam qozonda non pishirib, belimga tugib berardi. Daladan uyga kelmaydigan otam va akamga non olib borib, ularga ko‘maklashardim. Bo‘yim omoch bilan teng kelsa ham yer haydaganman. Katta Farg‘ona kanali, Namangan kanali qurilishlarida qatnashdim. Tut pishig‘ida mevalarini quritib, qishlash uchun yig‘ib qo‘yardim. Uyida bir tup tuti bor odam boy-badavlat edi o‘sha zamonlarda. Bu gaplarni nabiralarimga aytib bersam, cho‘pchakdek tuyuladi, ishongisi kelmaydi.

Keyin urush boshlanib ketdi. Frontga ketayotganimda 19 yoshda edim. Eh-he, urush olovlari qancha oilalar yostig‘ini quritdi, shahar va qishloqlarni vayron qildi. Akam Rahmonjon bilan harbiy qismda uchrashganman. U boshqa frontda jang qilib, og‘ir yaralanganidan so‘ng uyga qaytgan. Birinchi jangda bir necha hamqishlog‘im ko‘z o‘ngimda halok bo‘ldi. Bu holatdan ta’sirlanib, bir necha kun o‘zimga kelolmaganman. Uyga xat yozsam, yolg‘on bo‘lsa ham do‘stlarim sog‘-salomat ekanini aytardim. Bir safar qo‘l-oyog‘imdan yaralanib, tuproq ichida qolib ketibman. Ko‘zimni ochib qarasam, harbiy gospitalda yotgan ekanman. Qisqa davolanishdan so‘ng yana oldingi safga qaytganman.





Hozirgi davr yoshlariga juda havas qilaman. Qo‘llarini qayoqqa uzatsa yetadi. Yaqinda Prezidentimizning Farg‘onaga kelganini eshitdim, televizorda ko‘rdim. Yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida kechayu kunduz qayg‘urayotganini kuzatib quvondim. 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan tadbirda Prezidentimiz bilan uchrashib, hamsuhbat bo‘lgan damlarni hech qachon unutmayman. Birga tushgan suratimiz uy-muzeyimning eng qadrli boyligi sifatida e’zozlanadi.

Marg‘ilonda tosh, shag‘alli yerlarda yangi shahar, dam olish maydonlari, sayilgohlar qurilganidan xabar topdim. O‘g‘illarim bayram kunlari afsonalar shahriga sayilga olib chiqamiz, deyapti. Bu yerlardan ko‘p o‘tganman. Yillar davomida suvsizlikdan qaqrab yotgan dala-dashtlar bunchalar chiroyli bo‘lib ketadi deb hech kim o‘ylamagandi. Qilsa bo‘larkan-ku. Hamma narsa el osoyishtaligi, farovonligi, dasturxonlar to‘kinligiga qaratilgan. Bularni ko‘rib, yana 20 yashar yigit bo‘lib qolgim keladi.

Xonadonimizdan yo‘qlab kelguvchilar qadami uzilgani yo‘q. Ular ko‘pincha uzoq umr ko‘rish sirlarini so‘raydi. Ularga shunday dorilamon kunlarga shukronalar aytish, berilgan umr, vaqtni behudaga emas, el-yurt manfaatiga sarflash kerakligini, halol mehnat qilgan kishining umri ziyoda bo‘laverishini aytaman. Shuncha imkoniyat, farovonlik, tinchlik-xotirjamlik, baxtu bekamlik bo‘lgan yurtda yuzlar bilan yuzlash hech narsa emas. Sizlar mendan-da ziyod umr ko‘rasizlar, deyman ishonch bilan. 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati pul mukofoti va boshqa qimmatbaho esdalik sovg‘alar oldim. Hammasi uchun katta rahmat.

> **Xonadonimizdan yo‘qlab kelguvchilar qadami uzilgani yo‘q. Ular ko‘pincha uzoq umr ko‘rish sirlarini so‘raydi. Ularga shunday dorilamon kunlarga shukronalar aytish, berilgan umr, vaqtni behudaga emas, el-yurt manfaatiga sarflash kerakligini, halol mehnat qilgan kishining umri ziyoda bo‘laverishini aytaman. Shuncha imkoniyat, farovonlik, tinchlik-xotirjamlik, baxtu bekamlik bo‘lgan yurtda yuzlar bilan yuzlash hech narsa emas.**

**Odiljon ZOKIROV,**
**Ikkinchi jahon urushi faxriysi,**
**Toshloq tumani**

Oramizdagi odamlar

# HAYOTGA ISHONCH BILAN YUZLANISH BAXTI

Boshlanishi 1-betda

Nishon tumanida dehqon oilasida tug‘ilgan Asror Qurbonov keyinchalik ko‘chatchilik bilan ham shug‘ullanib ko‘rdi. Tomorqasida o‘rik, yong‘oq ko‘chatlarini ko‘paytirib, bozorda sotadigan bo‘ldi.

— Ko‘chatchilikni boshlashimga qo‘shnim sababchi bo‘lgan, — deydi Asror Qurbonov. — O‘sha paytlari mahallamizda bor-yo‘g‘i bittagina archa bo‘lib, qo‘shnimizning hovlisida o‘sib turardi. Doim yashil bo‘lib turgani uchunmi, havasim kelgan. Erta kuz mahal negadir shu archani kesadigan bo‘lishdi. Sababini so‘rasam, hovliga soya solib, boshqa ekinlar rivojiga ta’sir qilayotganini aytishdi. Iloji bo‘lsa, shuni uvol qilmasliklarini iltimos qilsam ham quloq tutishmadi. Yaqin narsamdan ayrilib qolayotganimdan afsuslandim. Ko‘p o‘tmay shu archa urug‘ini olib ko‘paytirish haqida o‘ylab qoldim. Qulagan archa daraxti urug‘larini bitta qoldirmay terib, bahor kelganda donalab ekib chiqdim. Ishonasizmi, urug‘lar unib chiqishini juda xohlardim. Deyarli har kuni bir marta suv quyib, qarab chiqqanman. Kunlar o‘tishi bilan urug‘larning deyarli hammasi unib chiqdi. Xursand bo‘ldim. Bitta kesilgan daraxt urug‘idan ikki yuzga yaqin ko‘chat yetildi. Besh-oltitasini ko‘cha tarafga ekib chiqdim. Buni ko‘rgan so‘rovchilar ko‘paydi. U paytlari buni sotib, daromad topish haqida o‘ylab ham ko‘rmagandim. Ko‘chat so‘raganlarga uch-to‘rttasini bepul berdim. Bir kuni qo‘shni mahalladan o‘nta nihol so‘rab kelishdi. Kavlab berdim. Qo‘limga pul tutqazishdi. Olishga ikkilandim. Ammo u kishi qo‘ymasdan berib ketdi. Sanab ko‘rsam, anchagina ekan. Demak, bundan daromad topish mumkinligini angladim...

Shundan keyin yosh yigit ishga jiddiy yondashdi. Endi mevali daraxtlarni ham ko‘paytirishga kirishdi. O‘rik, yong‘oq ekib, ko‘chatlarini sotishni yo‘lga qo‘ydi. Tez orada tajribali bog‘bonga aylandi. Topgan daromadi bilan ro‘zg‘orga ham nafi tega boshlaganidan ota-onasi ham mamnun bo‘ldi. Keyinchalik uylandi. Mashina oldi. Tomorqasining bo‘sh turgan joyiga issiqxona qurdi.

— Issiqxonaga pomidor ekayotganiga ancha yillar bo‘ldi. O‘sha paytlari tumanimizda sanoqli kishida issiqxona bor edi, — deydi u. — Besh sotix yerdan anchagina hosil olardim. Ammo negadir xaridor kam bo‘lgan. Tanish ishbilarmonlar taklifi bilan xorijga sotishni yo‘lga qo‘ydim. Uch-to‘rt yil eksport qildim. Yaxshigina foyda ko‘ra boshladim. Birim ikki bo‘ldi. Ko‘pchilik bir qo‘lda shuncha mehnat qilishimni ko‘rib, hayron qolardi. Aslida, hammasi kishining o‘ziga bog‘liq. Odam baxtni o‘zi yaratadi. Ochig‘ini aytsam, oila qurmasdan oldin ertangi kunda farzandli bo‘lsam, qanday voyaga yetkazaman degan qo‘rquv bor edi menda. Boshqalardan kam bo‘lib o‘smasmikan degan o‘yda yurardim. Lekin odam hech mahal ruhan cho‘kmasligi kerak ekan. Kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan ishladim. Asta-sekin hammasi yo‘lga tushib ketdi. Farzandlarimni o‘zgalardan kam qilmasdan tarbiyalayapmiz. Yigit kishiga qirq hunar oz, deydi xalqimiz. Bir ish bilan cheklanib qolmadim. Imkon darajasida intilib, halol mehnat ortidan hayotim yaxshilandi. Nogironman deya qarab o‘tirmadim. Biror marta yordam so‘rab mahalla yoki hokimlik eshigini taqillatib bormadim. Shukrki, birovdan kamimiz yo‘q...

Bugun Asror Qurbonov istiqomat qilayotgan Janub mash’ali mahallasi faollari u bilan faxrlanadi. Boisi, yosh tadbirkor har bir ishni o‘rnak bo‘larli darajada bajarishga harakat qiladi. Xususan, besh tonna hajmli hovuz qurib, yomg‘ir, qor suvini shunga to‘playdi. Yig‘ilgan suv tomchilatib sug‘orish usulida qo‘llanilgani evaziga ancha vaqtga yetadi. Shu bilan birga, qulupnay ko‘chatini ham yetishtirib, sotuvini yo‘lga qo‘ygan. Hozir o‘z tomorqasidagi besh sotix yerda qulupnay yetishtirib, oyiga o‘rtacha ellik-oltmish million so‘m topmoqda. Bundan tashqari, o‘tgan yil oxirida qo‘shimcha 50 sotix yer oldi. U joyga issiqxona qurib, pomidor, bodring, qulupnay ekdi. Ishsiz o‘n nafar yoshning bandligini ta’minladi.

— O‘tgan yilning oktyabr oyida ishga kirgandim, — deydi issiqxonada mehnat qilayotgan Nizom ismli yigit. — Oldin tayinli ish joyim yo‘q edi. Rosti, inson chin dildan istasa, har bir ishni eplashiga guvoh bo‘ldim. Asror akaning ish faoliyati meni ruhlantirdi. Dehqonchilik sirlarini o‘rgatishini so‘ragandim, mana, astoydil saboq beryapti. Qishloqda kattagina tomorqam bo‘sh yotibdi. O‘ylab ko‘rsam, xazina hovlimda ekan. Kelgusida bu yerda tajriba to‘plab, men ham issiqxona qurmoqchiman. Hozir to‘rt million so‘mdan ortiq maosh olaman. Nahotki, biz sog‘lom bo‘lib, bor sharoitlar, imkoniyatlardan foydalana olmasak. Bu yerda o‘n kishi mehnat qilamiz. Aslida, barchasi dangasalikni yengib olishda ekan. Shunda turli bahona qidirmasdan faqat natija uchun harakat qiladigan bo‘lamiz.

Ayni kunlarda yangi issiqxonalardagi hosil pishgan. Ishchilar qulupnay va bodring teryapti. Sotish uchun bozorga ovora bo‘lib borish shart emas. Xaridorlarning o‘zi shu yerdan olib ketmoqda.

— Bu joy yangi, tuprog‘i sho‘r. Shu bois, birinchi yil sinov jarayoni ketyapti, — deydi Asror. — Lekin ekinlarimiz rivoji yomon emas. Ayniqsa, qulupnay tez moslashdi. Kuzga borib, barcha issiqxonalarda qulupnay yetishtirish niyatimiz bor. Inson mehnat qilganidan so‘ng rohatini ham ko‘rishi kerak. Nasib etsa, joriy yil yakuniga qadar bu yerdan bir milliard so‘mga yaqin daromadni mo‘ljallab turibmiz. Kelgusi yilda esa hosilni to‘liq eksportga chiqaramiz. Bundan tashqari, bo‘sh yerga daraxt urug‘larini sepib chiqdik. Ikki-uch yilda tayyor ko‘chat bo‘ladi. Bir tomonda kavrak ko‘chati ham yetishtirishni yo‘lga qo‘ydik.

Halol peshona teri ortidan topilgan non, albatta, totli bo‘ladi. Asror Qurbonov ham o‘z baxtini o‘zi yaratgan kishilardan. Qilayotgan har bir ishini esa bemalol fidoyilikka, jasoratga mengzash mumkin.



> **Inson mehnat qilganidan so‘ng rohatini ham ko‘rishi kerak. Nasib etsa, joriy yil yakuniga qadar bu yerdan bir milliard so‘mga yaqin daromadni mo‘ljallab turibmiz. Kelgusi yilda esa hosilni to‘liq eksportga chiqaramiz. Bundan tashqari, bo‘sh yerga daraxt urug‘larini sepib chiqdik. Ikki-uch yilda tayyor ko‘chat bo‘ladi. Bir tomonda kavrak ko‘chati ham yetishtirishni yo‘lga qo‘ydik.**

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Munosabat

# INSON QADRI – ULUG‘, XOTIRASI – BARHAYOT



**Nargiza SALOMOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ham ularning jasoratidan yaqqol dalolat beradi. Shuningdek, mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta’minot bazasiga aylangan. Jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, kiyim-kechak va oziq-ovqatlar yetkazib berilgan.

Bunday misollar esa g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushgani, xalqimiz dunyoni fashizm balosidan xalos etishga qanday katta hissa qo‘shganini yaqqol namoyon etadi.

O‘sha yillarda olijanob va mehr-muruvvatli ajdodlarimiz g‘oyat og‘ir sharoitga qaramay, urush hududlaridan ko‘chirib kelingan 1,5 millionga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo‘lgan 250 ming yetim bolani o‘z bag‘riga olgani chinakam jasorat va odamiylik belgisidir.

Shu nuqtayi nazardan, fashizmga qarshi urushda mardona jang qilgan, og‘ir mashaqqat va musibatlarni boshdan kechirgan ushbu qahramonlarning dil bitiklarini keyingi avlodlarga yetkazish, xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkinlik uchun o‘z jonini qurbon qilganlar xotirasini hamisha yod etish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Bugungi kunda 9-may — Xotira va qadrlash kuni ana shu ayanchli oqibatlarini unutmaslikka, tinchlik va osuda hayotning qadriga yetishga, vatanga sadoqat hissi bilan yashashga, shuningdek, doimo ogoh va hushyor bo‘lishga, yoshlarni tarixiy xotiraga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.



> **Insonga tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik har kuni kerak. Guvohi bo‘lyapmiz, dunyoda tinchlik omonat bo‘lib qoldi. Tinchlik uchun shukronalikda bo‘lish, mehnat qilish, doim izlanish muhim. Shuning uchun xalqimiz Xotira va qadrlash kunini yuksak qadrlaydi. Zotan, inson qadri — ulug‘, xotirasi — barhayot.**



Davlatimiz rahbarining shu yil 16-apreldagi “9-may — Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori har bir urush qatnashchisiga berilayotgan yuksak e’tiborning amaliy ifodasi bo‘ldi. Ushbu hujjatga asosan, bu yilgi bayram tadbirlari “Burch, jasorat, matonat!” shiori ostida o‘tkazilayotgani yosh avlodni vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat ruhida, jasur insonlar etib tarbiyalashga hissa qo‘shadi.

Bugun yurtimiz tinchligi, barqarorligi uchun jon fido qilgan insonlar xotirasi hurmat bilan yodga olinmoqda. Ayni vaqtda hayot bo‘lgan mehnat faxriylari va keksalarga ehtirom ko‘rsatilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari poytaxtimizdagi G‘alaba bog‘iga tashrif buyurib, ushbu sana munosabati bilan tashkil etilgan xotira marosimida ishtirok etdi. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari holidan xabar olib, faxriylar bilan samimiy muloqot qildi.

Prezidentimiz G‘alaba bog‘idagi “Millat fidoyilari” xiyobonida ham bo‘ldi. Ushbu majmuada mustaqillik yillarida vatanimiz ozodligi, el-yurtimiz tinchligi yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘lgan 196 nafar harbiy xizmatchi va huquq-tartibot organlari xodimining nomlari muhrlab qo‘yilgan. Bobolarning g‘ayrati, momolarning matonati namoyon bo‘ladi bu maskanda. U nafaqat xotira xiyoboni, balki minglab, millionlab hamyurtlarimizning ziyoratgoh manziliga aylandi.

Davlatimiz rahbari ota-onalarga shunday bahodir, dovyurak farzandlarni dunyoga keltirib, haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalagani uchun chuqur minnatdorlik bildirdi. Xalqimiz navqiron yoshda dushmanga qarshi o‘zini qalqon qilgan bunday fidoyi qahramon o‘g‘lonlarimizni hech qachon unutmasligi urg‘ulandi. Bu, o‘z navbatida, urush va mehnat faxriylari, vatan himoyasi yo‘lida jon fido qilgan insonlar jasoratiga yuksak ehtiromning yorqin ifodasidir.

Bu dunyoda bitta buyuk, o‘zgarmas haqiqat bor: kelajak avlodlarning erkinligi, tinchligi va baxti uchun mardlik va jasorat ko‘rsatganlar xalq xotirasida abadiy qoladi. Xalqimiz o‘z qahramonlarini aslo unutmaydi. Ularning porloq xotirasi qalbimizda abadiy saqlanadi. Tiriklarni qadrlash, ularga mehr va e’tibor ko‘rsatish esa chin insoniy fazilatdir.

Insonga tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik har kuni kerak. Guvohi bo‘lyapmiz, dunyoda tinchlik omonat bo‘lib qoldi. Tinchlik uchun shukronalikda bo‘lish, mehnat qilish, doim izlanish muhim. Shuning uchun xalqimiz Xotira va qadrlash kunini yuksak qadrlaydi. Zotan, inson qadri — ulug‘, xotirasi — barhayot.

Prezident tashrifidan so‘ng

# “NARPAY TAJRIBASI”

## barcha tuman uchun dasturulamal bo‘ladi



Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Xususan, buning uchun viloyat mahallalari infratuzilmasini yaxshilashga 100 million dollar, umuman, viloyatga barcha manbalar hisobidan 11 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Tadbirkorlarga kredit resurslari uchun yana 18 trillion so‘m berilayotgani ta’kidlandi. Ushbu mablag‘, eng avvalo, tumanlarda ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, pirovardida hudud iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi darkor.

Yig‘ilishda tumanlarning sanoat, servis va qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari, yer osti va yer usti zaxiralari, mehnat resurslari, aholining biznes va kasbiy ko‘nikmalarini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish, mahallalar imkoniyatlaridan kelib chiqib, har bir tumanning ichki rivojlanish modelini yaratish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Mazkur tahlillar asosida tuman hokimlari, “mahalla yettiligi” va mahalla bankirlari resurslarni eng ko‘p ish o‘rni ochadigan va byudjet tushumlarini oshiradigan loyihalarga yo‘naltirishi lozim. Ushbu tizim 1-mayga qadar Narpay va Termiz tumanlarida joriy qilinib, butun respublika uchun namuna sifatida tatbiq etilishi belgilandi. Ayniqsa, Narpay tumani misolida sanoat va servisni rivojlantirish, hududlarga yangicha qiyofa olib kirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Shuningdek, mutasaddilarga daromadni ko‘paytirish bo‘yicha Narpay tajribasini yaratish topshirildi. Tumandagi 100 gektar maydonda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonasi tashkil etilishi e’lon qilindi. Qayd etilishicha, bu yerda joriy yilning o‘zida 500 million dollarlik loyihalar boshlanadi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida har bir mahalla imkoniyatini diagnostika qilish, o‘sish nuqtalarini aniqlab, tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, daromadni ko‘paytirish bo‘yicha Narpay tajribasini yaratish masalalari xususida so‘z bordi.

Demak, bugun Narpay haqida gap ketganda, masala odatdagidek faqat yer, suv yoki ekin-tikin bilan bog‘liq cheklangan agrar tushunchalar atrofida kechmaydi. Bu yerda zamonaviy fikrlash tarzi, yangicha qarashlar sinovdan o‘tmoqda. Bu jarayon qanday qilib rivojlanamiz, bunda asosan nimalarga tayanish lozim, nimalarni qay yo‘sin o‘zgartirishimiz kerak degan muhim savollarga javob izlashdan boshlanadi. O‘z navbatida, tumandagi yashirin imkoniyatlarni ochish, to‘g‘ri hisob-kitob qilish, muhimi, real hayotga ko‘chirishdan iborat.

Tumanda keyingi yillarda ayrim ko‘rsatkichlar asta-sekin yuqorilay boshladi. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasida o‘sish tezlashgan — 119,8 foizlik ko‘rsatkich shundan dalolat beradi. Eksport hajmining 125,7 foiz o‘sishi ham tasodif emas. Demak, tashqi bozorga chiqish yo‘llari asta-sekin ochilmoqda. Eng muhimi, kambag‘allik darajasini qisqartirish bo‘yicha katta siljish kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiy o‘zgarishlar oddiy raqam bilan tugamay, odamlar hayotiga ta’sir qila boshlaganidan darak.

Shu bilan birga, hali to‘liq ishga solinmagan imkoniyatlar ham bisyor. Ana shu vaziyatda asosiy burilish fikrlash darajasida yuz berdi. Hududni umumiy ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emasligi ayon bo‘ldi. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, har bir mahalla alohida o‘rganilmasa, uning o‘ziga xos kuchli jihatlari ochilmay qoladi. Misol uchun, qayerdadir sabzavotchilik yaxshi rivojlangan, boshqa joyda issiqxona uchun sharoit bor, yana bir hudud xizmat ko‘rsatish yoki kichik sanoatga ixtisoslashgan.

“Narpay tajribasi” degan tushuncha aynan shu nuqtada bor mohiyati bilan namoyon bo‘ladi. Bu alohida loyiha nomi emas, balki qarashlar o‘zgarishi. Ya’ni har bir hududni o‘z imkoniyatidan kelib chiqib rivojlantirish, resurslarni puxta tahlil orqali yo‘naltirish, qarorlarni aniq hisob-kitobga tayangan holda qabul qilish demakdir.

### Uch ustun va ichki muvozanat

Narpay infratuzilma imkoniyatlariga ko‘ra o‘ta ekstraordinar, ya’ni o‘ziga xos hudud, yurtimizning boshqa tumanlarida deyarli uchramaydigan noyob o‘sish nuqtalari uyg‘unligiga ega. Tumanni rivojlantirish borasida ishlab chiqilayotgan strategiyada uning iqtisodiyoti uch asosiy ustunga tayanishi qayd etilgan.

Birinchisi — qishloq xo‘jaligi. Bu yo‘nalish hudud uchun nafaqat daromad manbai, balki turmush tarzining bir qismi hamdir. Hudud azaldan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan, hosildor yer mo‘l, aholida agromadaniyat, dehqonchilik xarakteri shakllangan. Bir so‘z bilan aytganda, dalada suyagi qotgan mehnatkash qatlam — katta salohiyatga ega ishchi kuchi mavjud. Shu bois, umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham aynan shu soha eng katta ulushni egallab turibdi. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, qariyb 2 milliard 950 million so‘mlik mahsulot yetishtirilgan bo‘lsa, bu yil 105 foiz o‘sish sur’ati bilan 3 milliard 440 millionlik marraga yetish maqsad qilingan.

Ikkinchi ustun — sanoat. Ushbu yo‘nalishda ham hali to‘liq ochilmagan imkoniyatlar talay. Holbuki, tumanning ma’muriy markazi — Oqtosh shahri bir vaqtlar eng yaxshi sanoatlashgan hududlardan biri bo‘lgan. O‘nlab zavod va fabrikalar, juda katta infratuzilma ishlagan. Deyarli har bir obyektga alohida temir yo‘l yotqizilgan. Bu esa juda katta salohiyat deganidir.

Ammo ayni kunga kelib, ularning aksariyati ma’nan eskirgan, ya’ni zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Sanoatning tuman iqtisodiyotidagi hozirgi hajmi 2025-yil ma’lumotlari bo‘yicha 1 milliard 280 million so‘m. Prognozlarga ko‘ra, 2026-yil yakunida mazkur ko‘rsatkich salkam 1 milliard 600 million so‘mni tashkil etishi kutilyapti. Bu ishlab chiqarish sektori asta-sekin rivoj topayotganini anglatadi. Misol uchun, yaqindagina ushbu yerda paxta tolasidan chigitini ajratib beradigan zavod qurilib, foydalanishga topshirildi.

Uchinchi ustun — xizmat ko‘rsatish. Narpay hududiy jihatdan O‘zbekistonning qoq markazida joylashgan. Masalan, gazni mamlakatimizning u chekkasidan bu chekkasiga — Nukusdan to Farg‘onagacha purkab haydab beradigan markaziy gaz quvurlari tarmog‘i aynan shu yerda bunyod etilgani bejiz emas. Bundan tashqari, hududdan temir yo‘l va M-37 xalqaro magistrali o‘tgan. E’tiborlisi, temir yo‘l bilan magistral orasidagi masofa bor-yo‘g‘i besh-olti kilometr va ularga yaqin joyda kattagina bozor mavjud.

Bozor infratuzilmasini yaxshilash orqali katta miqdorda qo‘shimcha qiymat olib kelish, juda ko‘p odamni ish bilan ta’minlash mumkin. Ushbu hududda hozir logistika markazi barpo qilinyapti. Ilgari bozor to‘liq davlat nazoratida bo‘lgan, chiroq deyarli har kuni o‘char, katta miqdorda qarzga kirib qolgan edi. Tartib, sanitariya va xavfsizlik masalalari ham talab darajasida emasdi. Masalan, o‘tgan yili bozor hududida 30 ta jinoyat sodir bo‘lgan va “qizil” toifadagi hududlar sirasiga kirardi.

Hozir ushbu bozor respublikadagi eng namunali, raqamlashgan, sun’iy intellekt bo‘yicha ishlaydigan, xavfsiz kompleksga aylantirilyapti. Arzon va xavfsiz, sifatli bozor modelini yaratish maqsadida hududda dastlab sun’iy intellekt asosida ishlaydigan 250 ga yaqin kamera o‘rnatildi. Natijada bozor qisqa muddatda “qizil”dan “yashil” toifaga o‘tdi. Bundan tashqari, raqamli bozor tizimiga o‘tish ishlari ketmoqda. Har bir rasta shartnoma asosida berilishi tufayli davlatga tushum ancha oshdi. Xususan, ilgari 85-90 million patta puli yig‘ilgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich o‘rta hisobda 500 million so‘mni tashkil qilyapti.

Bu yerni Toshkentdagi Abu Saxiy bozori kabi keng tarmoqli, ulgurji savdo maydoniga aylantirish rejalashtirilyapti. Shu maqsadda Xitoydan to‘g‘ridan to‘g‘ri kiyim olib kelish masalasi ko‘rib chiqilmoqda. Buning uchun bozor yonidagi 3,5 gektar yerda kargo xizmati yo‘lga qo‘yilyapti. Pirovardida bozorni rivojlantirib, tadbirkorlar sonini ko‘paytirish, shu orqali aholi farovonligiga xizmat qilish ko‘zlangan. Hozir hududda 3500 dan ziyod tadbirkor faoliyat yuritadi. Yangi loyiha bo‘yicha bozor qayta rekonstruksiya qilingach, 9800 dan ortiq ishbilarmon faoliyati uchun sharoit hozirlanadi.

Demak, tuzilma mavjud. Uch asosiy tarmoqning har biri hozircha alohida yo‘nalishda rivojlanmoqda. Endi masala shu harakatni bir o‘zanga solishda. Qayerda ishlab chiqarish taraqqiy etsa, o‘sha yerda qayta ishlash paydo bo‘lishi, undan keyin xizmat ko‘rsatish tizimiga ulanib ketishi kerak. Ushbu zanjir to‘liq ishlasa, taraqqiyot sur’ati ham shunga yarasha bo‘lishi shubhasiz. Shu o‘rinda yana bir muhim jihatni — ichki tuzilmani tashqi imkoniyatlar bilan bog‘lash zaruratini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bu esa, o‘z navbatida, investitsiya, eksport va yangi loyihalar bilan bog‘liq.

### Imkoniyat yo‘nalishlari

Tuman ichki imkoniyatlari hisobiga asta-sekin olg‘a siljiyapti. Shu bilan birga, katta o‘sish faqat ichki imkoniyat hisobiga yuz bermasligini ham unutmaslik lozim. Bunda tashqaridan kirib keladigan moliyaviy oqim, investitsiyalar ham alohida ahamiyatga ega. Narpayda bugun ana shu jarayonning yangi nafasi sezila boshlagan. Jumladan, keyingi davrda tumanga yo‘naltirilgan investitsiya hajmi 155 million dollarga yetdi. Shundan 88 millioni to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya. Bu esa hududning eksport salohiyatiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazyapti. Tuman bo‘yicha eksport hajmi 16,2 million dollarga yetgan, o‘sish sur’ati 123 foizni tashkil etadi.

Eksport tarkibiga qaraganda, asosiy ulush hali ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri keladi — 11,1 million dollar. Sanoat mahsulotlariniki esa 5 million dollar atrofida. Bu mahsulotlarning katta qismi xom yoki yarim tayyor holatda eksportga chiqarilayotganini anglatadi. Shu o‘rinda muammo ham, imkoniyat ham bir nuqtada kesishishini kuzatish mumkin. Ya’ni investitsiyani mahalliy mahsulotlarni shu yerning o‘zida qayta ishlab, tayyor holatda eksportga chiqarish bilan bog‘liq loyihalarga jalb qilish galdagi vazifalardan. Shunda daromad hajmi bir necha barobar ortadi.

Bu o‘rinda yana bir nozik savol yuzaga chiqadi: bu mablag‘ va imkoniyatlar qaysi nuqtalarga yo‘naltirilsa, katta natija beradi? Aytganimizdek, Narpay tajribasi aynan mana shu savol negizida tarkib topmoqda. Zero, har bir hududning o‘ziga xos kuchli jihati bor. Ana shuni topib, tayanib harakat qilish o‘sish nuqtalarini aniqlashda muhim omildir. Asosiy mezon esa ichki iqtisodiy aylanishning shakllanishi. Shu jarayon bilan birga investitsiya loyihalari ham tabiiy ravishda paydo bo‘ladi. Yangi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish nuqtalari va qayta ishlash yo‘nalishlari iqtisodiy bo‘shliqlarni to‘ldirib boradi. Har bir loyiha umumiy tizimning uzviy qismi sifatida ishlaydi.

Shunday ekan, Narpay tajribasining eng muhim qatlamlaridan biri hududda yillar davomida ko‘zga tashlanmay kelgan imkoniyatlarni ochish, loyihadan aniq natijaga aylantirish jarayonidir. Tahlillar tuman iqtisodiyotining keyingi sakrashi mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdan ko‘ra ko‘proq ishga solinmagan resurslar hisobiga yuz berishini ko‘rsatadi. Yer, suv, infratuzilma, bozor va mehnat salohiyati bir tizimga bog‘langanda Narpayda yangi iqtisodiy harakat yo‘nalishlari vujudga keladi.

Eng avvalo, tuman uchun yirik investitsiya portfeli shakllantirilgan. Umumiy qiymati 276,1 million dollar bo‘lgan 54 ta loyiha sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi kesimida joylashtirilgan. Bu yo‘nalish oddiy loyihalar yig‘indisi emas, balki ishlab chiqarish zanjirini to‘liq yopish g‘oyasiga tayangan yaxlit tizimdir. Xomashyo hududning o‘zida qayta ishlanadi, xizmat ko‘rsatish esa shu jarayonni to‘ldiruvchi bo‘g‘inga aylanadi. Natijada joriy yilning o‘zida 1540 ta yangi ish o‘rni ochilishi, 16,2 million dollarlik eksport salohiyati yuzaga chiqishi, sanoat va xizmat ko‘rsatish hajmida sezilarli o‘sish kutilmoqda.

Ikkinchi yo‘nalish yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Suv ta’minoti murakkab, hosildorligi past 1080 gektar maydon qayta ko‘rib chiqilib, unda an’anaviy paxta va g‘alla ekinlaridan voz kechgan holda yuqori daromadli yo‘nalishlarga o‘tish taklif etilgan. Bu hududlarda chorvachilik, intensiv bog‘dorchilik va eksportbop ekinlar yetishtirish asosiy yo‘nalishga aylanadi. Mazkur model orqali 20,7 million dollarlik investitsiya jalb qilinishi, 250 ta yangi ish o‘rni ochilishi, yerning iqtisodiy samaradorligi keskin oshishi ko‘zda tutilgan.

Uchinchi yo‘nalish infratuzilma bilan bog‘liq. Tuman markaziga olib boruvchi 36 kilometr yo‘l tarmog‘i 11 ta mahalla va 45 ming kishining iqtisodiy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq yillar ta’mir ko‘rmagan ushbu yo‘llarni yangilash orqali hududning ichki harakatchanligi oshadi, logistika xarajati kamayadi, biznes faolligi esa kuchayadi. Shu jarayonda 11 ta yangi loyiha shakllanishi, 50 ta ish o‘rni ochilishi, transport oqimi tartibga tushishi kutilmoqda. Bu yo‘nalish iqtisodiy faollikning hudud ichida erkin aylanishiga xizmat qiladi.







> Narpay modeli pilot loyiha sifatida shakllanmoqda. Avval tuman darajasida sinovdan o‘tadigan bu tizim keyinchalik boshqa hududlarga ham tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Shu ma’noda, Narpay tajribasi oddiy rivojlanish loyihasi bo‘libgina qolmay, yangi boshqaruv modeliga, o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”ga aylanishi kutilmoqda.



To‘rtinchisi — yer va xizmat ko‘rsatish bozorini jonlantirish. Tuman hududida sanoat va xizmat ko‘rsatish uchun ajratilgan 9,9 gektar maydon, M-37 yo‘li bo‘yidagi 1,6 gektar hudud hamda Narpay kanali bo‘yidagi 1,6 gektar yer auksion orqali tadbirkorlik subyektlariga ajratilishi rejalashtirilgan. Bu jarayon tufayli 37,3 million dollarlik investitsiya jalb qilinadi, 488 ta yangi ish o‘rni ochiladi, 24,4 milliard so‘mlik qo‘shimcha soliq bazasi yuzaga keladi. Shu bilan birga, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida ham sezilarli o‘sish kuzatilishi prognoz qilingan.

Beshinchi yo‘nalish zamonaviy agrar texnologiyalar bilan bog‘liq. Gidroponika usulida tashkil etiladigan issiqxona klasteri 60 gektar maydonni qamrab oladi. Suv ta’minoti cheklangan hududlar uchun bu modelga eng maqbul yechim sifatida qaralmoqda. 20 va 40 gektarli hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar natijasida 12 million dollarlik investitsiya jalb qilinadi, 305 ta yangi ish o‘rni ochiladi. Eng muhim jihati, yil davomida barqaror mahsulot yetishtirish imkoniyati mavjud. Ushbu yo‘nalish bugun Narpay agrar tizimining eng innovatsion tarmog‘i sifatida mashhur bo‘lib ulgurdi.

Oltinchi yo‘nalishga ko‘ra, energetika va savdo-logistika tizimi modernizatsiya qilinmoqda. “Tinchlik” podstansiyasining quvvatini oshirish orqali 45 ming kishiga, sanoat zonalariga va yirik savdo majmualariga uzluksiz elektr yetkazib beriladi. Shu bilan birga, “Mirbozor” bozori va logistika markazi rekonstruksiya qilinib, 76,4 million dollarlik va 4,7 million dollarlik loyihalar ishga tushiriladi. Bu tizim iqtisodiy jarayonlarning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi, bozor faoliyatini barqarorlashtiradi.

Yettinchi yo‘nalish yer osti resurslarini aniqlash va geologik salohiyatni ochish imkoniyatlarini ko‘zda tutadi. Hududning geologik tuzilmasi to‘liq o‘rganilmagani sababli yangi qidiruv ishlari boshlangan. Hozir mavjud salohiyatdan maksimal foydalanish choralari ko‘rilmoqda. Aytilganidek, granit toshlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan yangi zavod qurilishi allaqachon boshlab yuborilgan.

Sakkizinchi yo‘nalish sifatida esa foydalanilmayotgan bino va yer maydonlarini iqtisodiy aylanishga qaytarish masalasi belgilangan. Bunda bo‘sh turgan obyektlar aniqlanib, yangi investitsiya loyihalariga jalb qilinadi. Ya’ni hududdagi harakatsiz kapitalni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish orqali sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytirish maqsad qilingan. Bu esa o‘z-o‘zidan byudjetga tushumning oshishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Narpayda shakllanayotgan investitsiya modeli alohida loyihalar yig‘indisi emas. Bu hududning barcha resursini yaxlit zanjirga bog‘laydigan tizimdir. Yer, suv, yo‘l, energiya, bozor va inson resurslari bir markazda birlashsa, iqtisodiy harakat yangi bosqichga chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, Narpay tajribasi hududiy rivojlanishning yangi modeli sifatida o‘ziga xos yo‘ldan bormoqda.

### Iqtisodiy tizim bilan bog‘liq kategoriya

O‘zgarishlar oddiy odamlar turmushida aks etmaguncha hech qanday amaliy qiymatga ham, aytgulik ahamiyatga ham ega bo‘lmasligi ayon. Shu ma’noda, Narpayni kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish masalasi ustida jiddiy va izchil ishlar bajarilmoqda.

Tuman bo‘yicha iqtisodiy faol aholi soni 102 mingdan oshadi. Shundan 97 mingdan ortig‘i band. Ishsizlar soni 5000 atrofida. Mazkur ko‘rsatkichni yil yakuniga qadar 3700 gacha tushirish rejalashtirilgan. Foiz hisobida qaralsa, ishsizlik darajasi 4,9 foizdan 3,3 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Shuningdek, tuman bo‘yicha kambag‘allik darajasi 5 foiz atrofida. Bu 2800 dan ortiq oila degani. Yil yakuniga borib, ushbu raqamni 1400 taga tushirish ko‘zda tutilgan. Ayni maqsadda “Bandlik dasturi” doirasida 38 mingdan ortiq fuqaro qamrab olingan bo‘lib, bu oldingi davrdagi holat bilan solishtirganda qariyb ikki baravar o‘sish demakdir.

Bu o‘rinda masala faqat ish o‘rni ochishda emas, balki qanday ish o‘rni ekani ham muhim. Oddiy mantiqqa ko‘ra, past daromadli, mavsumiy ishlar uzoq istiqbolda kambag‘allikni kamaytirmaydi. Bu bilan hayot sifatini tamoman o‘zgartirib yuborish imkonsiz. Shu jarayonda eng muhim o‘zgarish kambag‘allikning ijtimoiy holat emas, iqtisodiy tizim bilan bog‘liq kategoriya sifatida qayta talqin qilinishidir. Sodda qilib tushuntirganda, agar ishchi kuchi yuqori samarador sohalarga yo‘naltirilsa, natija tez seziladi. Aks holda, mavjud holat uzoq vaqt o‘zgarmay qolishi ehtimoli yuqori.

Demak, har bir hududda daromadni tez oshiradigan, ko‘p ish o‘rni ochadigan yo‘nalish-larni aniqlash zarurati tug‘iladi. Ana shu yondashuv “o‘sish nuqtalari” degan tushunchani yuzaga chiqardi. Narpay tajribasining eng muhim jihati ham shunda — boshqaruvning ma’lumot, tahlil va sun’iy intellekt asosida idora qilish tizimiga o‘tilishida. Bu yerda gap shunchaki raqamlashtirish haqida emas, balki qaror qabul qilish madaniyatining o‘zgarishi, resurslarni boshqarish va taqsimlashning yangi uslubi haqida ketmoqda.

Shu asosda har bir hudud uchun ichki rivojlanish modeli yaratiladi. Unda qaysi mahallaning qanday yo‘nalish bo‘yicha salohiyati yuqori ekani sun’iy intellekt texnologiyalari asosida aniqlanadi. Ilgari umumiy yondashuv ustun bo‘lgan bo‘lsa, endi har bir mahalla o‘z xarakteri, ta’bir joiz bo‘lsa, iqtisodiy DNKsi bilan ajralib turadi. Sun’iy intellekt asosidagi tahlil tizimi hududdagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Shu tariqa Narpay modeli pilot loyiha sifatida shakllanmoqda. Avval tuman darajasida sinovdan o‘tadigan bu tizim keyinchalik boshqa hududlarga ham tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Shu ma’noda, Narpay tajribasi oddiy rivojlanish loyihasi bo‘libgina qolmay, yangi boshqaruv modeliga, o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”ga aylanishi kutilmoqda. Prezidentimiz tashrifidan so‘ng bu boradagi ishlar yangi to‘lqinda, yanada yuqori sur’atda avj oldi. Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahallalardan ikkitasi ayni shu hududda bunyod etilayotgani ham bejiz emas. Zero, Narpay bugun o‘z taraqqiyotining keyingi bosqichiga o‘tishi barobarida yangi iqtisodiy fikrlash maydoni o‘laroq, Uchinchi Uyg‘onish nafasining eng chekka hududlargacha yetib borib, kerak bo‘lsa, uni rivojlanish drayverlaridan biriga aylantirish mumkinligini ko‘rsatadi.





# Sun’iy intellekt:

# ENDI USTUNLIK EMAS, REAL EHTIYOJDIR

**Bugun sun’iy intellekt texnologiyalari jahondagi global o‘zgarishlarning yetakchi omillaridan biriga aylanib ulgurdi. Uni iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohasiga joriy etish hech bir davlat uchun endi innovatsion ustunlik emas, balki raqobatbardoshlik, samarali davlat boshqaruvi, aholi turmush sifati va yangiliklar sur’atini belgilab beruvchi hayotiy ehtiyojdir.**



**Feruza MAHMUDOVA,**
**Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi bosh mutaxassisi**



Bundan sakkiz yil avval mamlakatimizda raqamlashtirish va yuqori texnologiyali loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaxlit davlat siyosati ishlab chiqilmagan, raqamli infratuzilma yirik loyihalar uchun yetarli emas, kadrlar tanqis, ta’lim dasturlari esa katta ma’lumotlar, robototexnikaga yo‘naltirilmagan edi.

Keyingi yillarda bu sohada katta o‘zgarishlar boshlandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ishlab chiqildi. Texnologik parklar, zamonaviy AT xablari barpo etildi. Mutaxassislar tayyorlash dasturlari sezilarli kengaytirildi. Tibbiyot, ta’lim, transport va davlat boshqaruvi sohalarida raqamli islohotlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston xalqaro innovatsion loyihalarga qo‘shilib, sun’iy intellekt asosidagi yechimlarni ishlab chiqish, yoshlarning startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratila boshladi. Sun’iy intellekt bo‘yicha o‘tgan yili 28-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan xalqaro forumda davlatimiz rahbari BAA bilan hamkorlikda start bergan “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi mamlakatimizdagi islohotlarning yangi bosqichi boshlanganidan darak beradi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar 4,75 million maktab o‘quvchisi va talabani, 150 ming pedagog-xodim hamda 100 mingdan ortiq davlat xizmatchisining sun’iy intellekt yo‘nalishida bilimi va malakasini oshirish belgilangan. Ahamiyatlisi, bu jarayonda sun’iy intellekt maktab, kasb ta’limi va oliy ta’lim tizimlariga integratsiya qilinadi.

Ushbu dadil qadam O‘zbekistonning raqamlashtirish yo‘lidagi muayyan amaliyotlardan ommaviy, inklyuziv va raqamli taraqqiyotga o‘tganini anglatadi. Bu intellektual texnologiyalardan samarali foydalana oladigan jamiyatni shakllantirishga qaratilgan strategik yo‘nalishdir.

Ayni yo‘nalishda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan aileaders.uz platformasi ishga tushirildi. Unda BAAning Dubay sun’iy intellekt markazi, AQSHning Coursera va Oracle, Irlandiyaning Alison, Xitoyning Huawei va boshqa yetakchi kompaniyalarning 90 dan ortiq kursida xalqaro standartlar asosida bepul ta’lim olish imkoniyati yaratildi.

Bugunga qadar platforma orqali BAA bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan loyiha doirasida 850 ming ishtirokchi boshlang‘ich darajadagi sun’iy intellekt asoslari kursini tamomladi. AQSHning “Coursera” kompaniyasi kurslarida esa 150 mingdan ortiq ishtirokchi bepul ta’lim olib, maxsus sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. Coursera platformasidagi 3000 ta kurs o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ayni yo‘nalishda “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi yo‘lga qo‘yilib, 7-11-sinflarda o‘qiydigan 5000 o‘quvchi dasturlash va xorijiy tillar bo‘yicha o‘qitildi. Joriy yilda ushbu loyihaga 4000 o‘quvchi qamrab olinishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, bugun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarining olis va chekka hududlarida AT shaharchalar faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida ham ana shunday shaharchalar tashkil etilib, 3000 yosh qamrab olinishi maqsad qilingan.

Bu yerda 1500 ga yaqin yoshlar xorijiy til va axborot texnologiyalari, jumladan, dasturlash, grafik dizayn, SMM va robototexnika yo‘nalishlari bo‘yicha bepul ta’lim olmoqda.

Yana bir muhim jihat. Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish maqsadida it-study.uz platformasi ishga tushirildi. Platformaga ingliz tili, elektron tijorat, SMM, grafik dizayn yo‘nalishiga oid 200 dan ortiq videodars joylashtirildi.

Mazkur platforma orqali 2025-yili “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 4 yo‘nalish bo‘yicha bepul bir oylik masofaviy kurslar tashkil etildi. Birinchi bosqichda 36 mingdan ortiq kambag‘al oila farzandlari o‘qitildi. Ikkinchi bosqichda kursni muvaffaqiyatli tamomlagan 5000 kambag‘al oila farzandi saralab olinib, raqamli texnologiyalar va xususiy o‘quv markazlari, umumta’lim maktablari yordamida professional AT kasblari bo‘yicha o‘qitiladi.

IT-Talents dasturi orqali 10 ga yaqin o‘quv markaziga eksportyor kompaniyalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlab bergani tufayli 1 milliard so‘mdan ortiq subsidiya ajratildi. CRM tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tgan axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan o‘quv markazlari soni 534 taga yetkazildi.

Markazlarda o‘qigan 73 mingdan ortiq yigit-qizning yarmidan ko‘pi AKT sohasida o‘zini o‘zi band qildi. Shu bilan birga, dasturning moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari doirasida AT xizmatlari eksporti yo‘nalishida tahsil olgan 122 bitiruvchiga subsidiya ajratildi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mazkur soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan davlat siyosati oliy ta’lim tizimida barqaror va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlamoqda. Xususan, axborot texnologiyalari yo‘nalishida ta’lim beruvchi oliy ta’lim muassasalari soni 2023-yilda 60 tani tashkil etib, ularda 50 mingga yaqin talaba tahsil olgan. 2026-yilga kelib, 145 ta oliy ta’lim muassasasida 123 ming talaba ta’lim olmoqda. Bu sohada kadrlar salohiyatini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot ehtiyojlarini tizimli ta’minlashga xizmat qilayotganini anglatadi.

Sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar, raqamli boshqaruv tizimlari, tezkor va shaffof davlat xizmatlari mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini ochish va odamlarning kundalik hayotida ko‘makchi vazifasini bajaradi.

---

## Turizm

**Turizm shunday serqirra sohaki, u an’anaviy ishlab chiqarish tarmoqlaridan tubdan farq qiladi. Unda zavod-fabrikalardagi kabi moddiy mahsulot yaratilmaydi, ammo uning samarasi iqtisodiyot uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, sayyoh mamlakatga qadam qo‘yishi bilanoq uning har bir xarajati mezbon uchun daromadga aylanadi. Masalan, mehmonxonada yashash, milliy taomlardan bahramand bo‘lish, transport xizmatlaridan foydalanish, gidlar hamrohligida sayohat qilish yoki nimadir xarid qilish davlat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri valyuta kirib kelishiga xizmat qiladi. Shu bois, turizm dunyo iqtisodiyotida “ko‘rinmas eksport” deya ta’riflanadi.**





# KO‘RINMAS EKSPORT

## yoxud sayyohlikning iqtisodiy qudrati

Bugun mazkur soha Jizzax viloyatida ham jadal rivojlanib bormoqda. Qulay geografik joylashuv, xalqaro ahamiyatga ega magistral yo‘llar bilan tutashlik viloyatni sayyohlar uchun ochiq va oson yetib boriladigan manzilga aylantirmoqda. Bu esa, ayniqsa, tranzit turizmini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Yo‘l-yo‘lakay tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun yaratilgan sharoitlar ularni nafaqat qisqa muddatga to‘xtashga, balki hududning go‘zal tabiati va madaniy merosi bilan yaqindan tanishishga chorlamoqda.

So‘nggi yillarda viloyatda turizm infratuzilmasi tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy mehmonxonalar, qulay yo‘llar, servis xizmatlar takomillashuvi va yangi sayyohlik yo‘nalishlari ochilishi hudud jozibadorligini yanada oshirdi. Natijada dunyoning turli davlatlaridan kelayotgan sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda.

Misol uchun, agar 2017-yilga qadar Jizzax viloyatiga xorijiy sayyohlar tashrifi yiliga 3000 tadan oshmasdi. Bu ko‘rsatkich 2025-yil yakuniga kelib, 512 mingtaga yetdi. Bu qariyb 170 barobar o‘sish demakdir. Mahalliy sayyohlar bo‘yicha ham shunday ijobiy dinamika kuzatilmoqda, 2017-yilda 40 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, 1 million 683 ming nafarga yetdi. Ya’ni 42 barobarlik o‘sish qayd etildi.

Albatta, bu raqamlar ortida katta mehnat, puxta rejalashtirilgan siyosat va izchil amalga oshirilgan tashabbuslar mujassam. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan ana shu sa’y-harakatlar nafaqat sayyohlar oqimini ko‘paytirdi, balki hudud iqtisodiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Muhimi, yangi ish o‘rinlari ochildi, xizmat ko‘rsatish sohasi kengaydi va aholi daromadlari sezilarli darajada oshdi.

Bugungi kunda Forish tumani misolida turizmning qanday kuchli iqtisodiy va ijtimoiy omilga aylanayotganini yaqqol ko‘rish mumkin. 2026-yilga kelib turizm sohasi tuman iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. U faqatgina daromad manbai emas, balki infratuzilmani rivojlantiruvchi, aholi bandligini ta’minlovchi va tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi kuchli drayverga aylandi. Turizm orqali kirib kelayotgan mablag‘lar nafaqat tuman g‘aznasini to‘ldirmoqda, balki har bir xonadon, har bir oila daromadiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ayni paytda tumanning turizm rivojlanayotgan qishloqlarida 30 dan ortiq joylashtirish vositasi — oilaviy mehmon uylari, xostellar va kempinglar faoliyat yuritmoqda. Bu esa hududning sayyohlarni qabul qilish salohiyati izchil oshib borayotganidan dalolat beradi.

Tumanning Nurota tog‘lari etaklarida joylashgan qadimiy qishloqlari — Uxum, Mojrum va Asraf betakror tabiati va boy madaniy merosi bilan alohida ajralib turadi. Bu maskanlarda asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy turmush tarzi va tabiat bilan uyg‘un hayot tarzi hanuzgacha saqlanib qolgan. Ana shu noyoblik esa sayyohlar uchun eng katta joziba manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Uxum qishlog‘i tog‘ bag‘rida joylashgan bo‘lib, u yerdagi sokin muhit, musaffo havo va an’anaviy hayot tarzi shahar shovqinidan charchagan inson uchun go‘yoki tabiiy shifo manbaidir. Ayniqsa, qishloqdagi qoyatoshlarga bitilgan juda ham qadimgi petrogliflar, Nurota qo‘riqxonasidagi noyob seversov qo‘ylari sayyohlarni ko‘proq o‘ziga jalb qiladi. Mojrum qishlog‘i esa ming yillik archasi bilan nafaqat mahalliy aholi, balki tabiat ixlosmandlari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu daraxt go‘yo asrlar guvohi sifatida vaqt va tabiatning uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Asraf qishlog‘i esa qadimiyligi, boy tabiati va samimiy muhiti bilan har bir tashrif buyuruvchining qalbida o‘chmas taassurot qoldiradi.

Ushbu hududlarda ekoturizm, agroturizm va etnoturizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mujassam. Sayyohlar bu yerlarda faqatgina dam olish bilan cheklanib qolmay, mahalliy aholining kundalik hayoti, qishloq xo‘jaligi ishlari, milliy taomlar tayyorlash jarayoni va qadimiy an’analar bilan yaqindan tanishish imkoniga ham ega bo‘ladilar. Bu esa turizmni oddiy sayohatdan ma’naviy boyish va madaniy muloqot vositasiga aylantiradi.

Sayyohlik mavsumi boshlanishi bilan bu qishloqlar yanada jonlanadi. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Hindiston kabi davlatlardan kelgan mehmonlar hudud bo‘ylab tashkil etilgan joylashtirish vositalarini to‘ldirib, mahalliy hayotga yangicha ruh bag‘ishlamoqda. Turizm sir-asrorlarini chuqur o‘zlashtirayotgan qishloq ahli mehmonlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatib, o‘z mehnati samarasini ko‘rmoqda.

“So‘nggi yillarda yurtimizda turizm sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni nafaqat eshitib, balki o‘z hayotim misolida chuqur his qilib kelmoqdaman, — deydi Uxum qishlog‘ida yashovchi Elmurod Berdiyev. — Bundan olti yil avval, aniqrog‘i, 2020-yilda uyimda mehmonxona ochishga qaror qildim. 2021-yildan boshlab esa xorijiy sayyohlarni qabul qilishni yo‘lga qo‘ydik.

Avval qo‘riqxonada oddiy ishchi edik, faqat maoshga qarab yashardik. Bugun mehnatim va oilamning sa’y-harakatlari bilan sayyohlarga xizmat ko‘rsatib, barqaror va munosib daromad topayotganimdan mamnunman. Muhimi, bu ish faqat mening emas, butun oilamning umumiy mehnatiga aylandi. Turmush o‘rtog‘im mehmonlar uchun milliy taomlar tayyorlaydi, tandirda non yopadi. Farzandlarim tarjimonlik qilib, mehmonlarni qishloq bo‘ylab sayr qildiradi. Aka-ukalarim ham bu ishga yelkadosh bo‘lib, birgalikda mehmonlarimizni kutib olamiz.

Bugun qishlog‘imizda turizm nafaqat tadbirkorlar, balki deyarli har bir xonadon uchun daromad manbaiga aylandi. Kimdir otini yoki eshagini sayyohlarga ijaraga berib daromad qilmoqda, kimdir mahalliy taksichilik xizmatini yo‘lga qo‘ygan. Chunki sayyohlarni olib kelgan avtobuslar qishloqning yuqori qismiga chiqolmaydi. Shu bois, ular qishloqdoshlarimizning taksi xizmatiga ehtiyoj sezadi.

Shuningdek, qishlog‘imiz ahli mehmonlarga o‘z mahsulotlarini taklif etmoqda. Qurut, turli hunarmandlik buyumlari, mahalliy mevalar va milliy mahsulotlar sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Bu esa har bir xonadonga qo‘shimcha daromad keltirmoqda”.

— Oddiy qishloq ayoliman, — deydi Elmurodning turmush o‘rtog‘i Oqila Berdiyeva. — Ilgari uy ishlari bilan band bo‘lib, o‘z mehnatimning iqtisodiy qiymatini unchalik his qilmasdim. Bugun turizm sabab ana shu oddiy mehnatim qadr topib, oilamiz daromadiga munosib hissa qo‘shayotganimni his qilib, qalbimda cheksiz mamnuniyat tuyaman. Hozir xorijdan kelayotgan mehmonlar uchun milliy taomlar tayyorlayman, tandirda issiq non yopaman, sigir sog‘ish yoki sutdan turli mahsulotlar tayyorlash jarayonlarini amaliy ko‘rsatib beraman. Men uchun bu kundalik oddiy yumushlar. Ammo mehmonlar bu jarayonlarni katta qiziqish, hayrat va havas bilan kuzatishadi va pul ham to‘laydi. Ayniqsa, mehmonlarimizning samimiy hayrati, iliq so‘zlari va minnatdorligi menga yanada kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi. Ular tandirda pishgan nonning betakror ta’mini, yangi sog‘ilgan sutning tabiiyligini, milliy taomlarimiz mazasini alohida e’tirof etadi. Shunday lahzalarda nafaqat mehnat qilayotganimni, balki xalqimiz madaniyati, urf-odat va an’analarini dunyoga tanitayotganimni his qilib faxrlanaman. Albatta, bu mehnatim munosib bahosini ham topmoqda. Masalan, katta guruhlar kelganida bir kunda 200





dollargacha daromad topish imkoniyatiga ega bo‘lyapman. Qishloq sharoitida bu ayol kishi uchun juda katta imkoniyat, qo‘llab-quvvatlashdir. Muhimi, uyimdan uzoqqa chiqmasdan, oilam bag‘rida mehnat qilib, farzandlarim tarbiyasi bilan birga daromad topayotganimdir. Bu — katta baxt. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy jihatdan ham hayotimizni o‘zgartirdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz turli millat vakillari bilan muloqot qilyapmiz, ularning madaniyati va dunyoqarashi bilan tanishyapmiz, o‘zimiz ham yangi tajriba va bilimlar orttiryapmiz. Shu bilan birga, o‘z qadriyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz yanada mustahkamlanmoqda, o‘zligimizni yanada chuqurroq anglay boshladik.

Turizmning eng katta afzalligi shundaki, bu sohada ko‘rsatilayotgan xizmat eksport hisoblanadi. Ya’ni mahsulotni chetga olib chiqish shart emas, balki sayyohning o‘zi kelib, xizmat uchun to‘lov qiladi. Bu esa hudud iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri valyuta kirib kelishini ta’minlaydi.

— 2026-yilda Forishga 80 mingdan ziyod xorijiy sayyoh tashrifi kutilmoqda, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Elnora Ummatova. — Albatta, bu ekoturizm yo‘nalishidagi hudud uchun juda katta ko‘rsatkich. Bunday natijalarga erishishda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, xalqaro talablarga javob beradigan shart-sharoitlar yaratish asosiy omil bo‘lmoqda. Hududimizga qayta-qayta tashrif buyurayotgan sayyohlar soni ortib borayotgani qilinayotgan ishlarga berilgan eng xolis bahodir.

Joriy yilning birinchi choragi natijalari ham bu yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini ko‘rsatmoqda. Tumanga 9 ming xorijiy sayyohni jalb qilish rejalashtirilgan edi. Ammo amaliy natijalar tahlili bunday mehmonlar soni qariyb o‘n yarim ming nafarga yetganini ko‘rsatmoqda.

Yaqinda O‘zbekistonning Buyuk Britaniyadagi turizm brendi elchisi Sofi Ibbotson tumanning Uxum qishlog‘iga tashrif buyurdi. Elchi tomonidan 26-mart holatiga Buyuk Britaniyadan mingga yaqin sayyoh booking.com platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tgani ta’kidlanib, yil yakuniga qadar ular sonini 3 ming nafarga yetkazish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

“O‘zbekiston men uchun shunchaki sayohat manzili emas — bu qalbimga yaqin, har gal kelganimda yangi ma’no kasb etadigan, ruhimni boyitadigan maftunkor diyordir, — deydi hindistonlik sayyoh Hashmat Singh. — Biz bu yurtga ko‘p yillardan buyon kelamiz. Ammo Forish tumanidagi qishloq hayoti bilan tanishganimizdan so‘ng sayohatlarimizning mazmuni butunlay o‘zgardi. Bu yerdagi sokinlik, tabiatning musaffoligi va muhimi, insonlarning samimiyati bizni o‘ziga rom etdi.

Mahalliy aholining urf-odatlari, an’analari, kundalik turmush tarzi bilan yaqindan tanishish biz uchun beqiyos tajriba bo‘ldi. Ayniqsa, milliy taomlar tayyorlash jarayonida ishtirok etish, tandirda non yopishni o‘rganish bizga o‘zbek madaniyati bilan yanada yaqinroq tanishish imkonini berdi.

Biz ko‘pincha tog‘lar bag‘rida piyoda sayr qilamiz. Bu sayrlar davomida nafaqat go‘zal manzaralardan bahra olamiz, balki o‘zimizni tabiat bilan uyg‘unlikda his qilamiz. Forishning har bir go‘shasi o‘ziga xos bir hikoyani so‘zlab beradigandek. Ayniqsa, biz istiqomat qilayotgan uy mehmonxonasidagi muhit alohida e’tiborga loyiq. Bu yerdagi samimiyat, mehr va oilaviy qadriyatlar o‘ziga maftun etdi. Bir necha kun davomida mazkur xonadon a’zolari bilan birga yashab, ularning kundalik hayotida ishtirok etish orqali o‘zimizni go‘yo shu oilaning bir bo‘lagidek his qildik. Bunday tuyg‘uni esa hech qanday mehmonxona yoki zamonaviy servis bilan solishtirib bo‘lmaydi.

Albatta, Samarqand va Buxoro kabi tarixiy shaharlar o‘zining ulug‘vorligi va betakror merosi bilan har qanday sayyohni hayratga soladi. Ammo so‘nggi besh yil davomida biz aynan Forishdagi qishloqqa qayta-qayta kelishni odat qildik. Chunki bu yerning ham tarixiy shaharlardan qolishmaydigan jozibasi, dilga yaqin insonlari bor. O‘zbekistonning ana shunday qishloqlari uning eng katta boyligidir. Bu yerlarda haqiqiy qadriyatlar va inson qalbini ilitadigan samimiyat mavjud”.

Forish tajribasi turizm salohiyatidan oqilona foydalanish orqali chekka hududlar ham iqtisodiy jihatdan rivojlanib, aholi farovon yashaydigan maskanga aylanishini ko‘rsatmoqda. Yurtimizda turizm nafaqat iqtisodiy drayver, balki ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omilga aylanib bormoqda.

**Farhod NE’MATOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**




# UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI AYNAN MAKTABLARDA QO‘YILADI

Boshlanishi 1-betda

Yillar davomida yaratilgan imkoniyatlar natijasida yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 oltin, 147 kumush, 221 bronza medalni qo‘lga kiritdi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli universitetlarda tahsil olayotgan yoshlarimiz 500 dan, nufuzli OTMlar 100 taligidagi oliygohlarda o‘qiyotgan yigit-qizlarimiz 3500 dan ortdi. Ushbu raqamlar O‘zbekiston bejiz e’tirof etilmaganining isbotidir. Keling, ushbu natijalarga zamin hozirlagan ta’lim sohasidagi ortga qaytmas, yurtdoshlarimiz dunyoqarashida evrilish yuz berishiga sabab bo‘lgan islohotlarni birma-bir yodga olamiz.

## Ilm-ma’rifat — kelajak kafolati

Ta’lim sohasiga qarash bundan o‘n-o‘n besh yil oldin butkul boshqacha edi. Ilgari yurtdoshlarimiz farzandlariga “O‘qib olim bo‘lasanmi, shu to‘rtta qo‘yni boqqaning ma’qul” yoki “savdongni qilaver”, deya tanbeh berardi. Bugun esa bilim olishga farovon hayotning kafolati, kelajak poydevori sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston ilm-fan mamlakatiga aylanib bormoqda.

Esingizdami, ilgari hududlarda to‘yxona qurish eng maqbul tadbirkorlik yo‘nalishiga aylangandi. Faqat markaziy shaharlarda emas, balki olis qishloq va ovullarda ham bir-ikkita to‘yxona bo‘lardi. Ta’limdagi yangilanishlar, universitet va institutlarga o‘qishga kirish bo‘yicha davlat imtihonlari shaffoflashgach, yoshlar uchun oliy ta’lim muassasalari eshigini ochadigan “oltin kalit” faqat ilm ekani oydinlashib qoldi. Natijada shaharu qishloqlarda o‘quv markazlari tashkil etila boshladi. Ilm berish, imtihonga o‘quvchilarni tayyorlash tadbirkorlikning eng samarali yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Hatto to‘yxonalarning ayrimlari qayta jihozlanib, o‘quv markazlariga aylantirildi.

Albatta, o‘quv markazlarining keng ommalashuvida yaratilgan qulay shart-sharoit, imtiyoz va rag‘batlarning yil sayin ortib borishi ham puxta zamin hozirladi. Xususan, o‘quv markazi ochgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit, chekka hududlarda esa 120 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi. Shuningdek, xususiy o‘quv markazlarida xorijiy tillarni o‘rganadigan yoshlar to‘lovining “2+6” oy shaklida qoplab berilishi tarmoqning yanada gurkirab yashnashiga xizmat qildi.

Natijada xorijiy tilni bilish darajasi bo‘yicha sertifikatga ega yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi samara berib, sertifikatli yigit-qizlar 600 mingdan oshgani, xorijiy tillarni mukammal biladigan 72 ming instruktor shakllandi. Xususiy o‘quv markazlari soni 3 karra ko‘payib, 38 mingdan oshdi.

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan ochiq muloqotida qayd etilishicha, endi Xususiy o‘quv markazlari uyushmasi tuzilib, uyushma a’zosi bo‘lgan markazlarga binosini ijaraga bergan tadbirkorlar ijaradan olinadigan daromad va foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi. Bunday markazlar o‘qituvchilarini ilg‘or ta’lim markazlariga stajirovkaga yuborish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Ya’ni tarmoq yagona katta kuchga aylanib, ish samaradorligi karrasiga ortishi ko‘zlanmoqda. Shuningdek, “Ko‘mak” dasturi doirasida olis va chekka hududlarda xorijiy til o‘quv markazlari faoliyatini kengaytirish uchun 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi. Olis hududlardagi o‘quv markazlari ijtimoiy soliqni 1 foiz, o‘qituvchilar uchun daromad solig‘ini 7,5 foiz miqdorida to‘laydi.

O‘g‘il-qizlarning asosiy vaqti maktabda o‘tadi. Demak, yoshlarga ilm berishda maktab asosiy maskandir. O‘quv markazlari esa ularning eng yaqin ko‘makchisi bo‘ladi. Shu bois, keyingi yillarda bu tizim butkul yangicha qiyofa kasb etdi. Ma’rifat maydoniga Prezident maktablari kirib keldi. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu maktablar hududlar bo‘ylab keng miqyosda tashkil etildi. Turli sinovlar bilan iqtidorli yoshlar saralab olingan ushbu maktab bitiruvchilari nafaqat mahalliy, balki xorijiy ta’lim muassasalarida ham o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Keyinchalik Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tashkil etilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari orasida ixtisoslashgan yangi muassasalar — Prezident hamda ijod va turli fanlarga ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ulardagi o‘qitish sifatini yuzlab bitiruvchilarining mahalliy va xorijiy oliy ta’lim muassasalariga muddatidan oldin o‘qishga qabul qilinayotganida ham ko‘rish mumkin. Birgina misol: 2024-yili Toshkent shahridagi Prezident maktabi o‘quvchisi Abdulaziz Sobirov dunyo reytingida yetakchi 5 talikka kiruvchi Garvard universitetiga grant asosida o‘qishga qabul qilingan. Shuningdek, o‘tgan yillarda Asilbek Ashurov, Go‘zal Haydarova, Sayfullo Saidov nufuzli 10 ta OTM qatoridagi universitetlarga grant asosida o‘qishga kirdi.

Prezident maktablari muvaffaqiyatli tuzilma sifatida ham O‘zbekiston ilm mash’alini jahon sahniga olib chiqmoqda. Jumladan, 2025-yil yanvarda Toshkent shahridagi Prezident maktabi Shayx Zoid Ol Nahayon nomi bilan ataluvchi barqaror rivojlanish sohasidagi yutuqlar uchun mukofotning “Global o‘rta maktablar” nominatsiyasida g‘olib deb topildi. Dunyoda ekologik masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Toshkentdagi Prezident maktabi o‘quvchilari o‘qituvchisi bilan birga aynan ana o‘sha global muammoga yechim bo‘ladigan loyihasi bilan tanlovda tengsiz deb topildi.

Boshqa turdagi davlat maktablari faoliyati ham tanqidiy-tahliliy ko‘rib chiqilib, isloh etilmoqda. Jumladan, ularda aniq fanlar, axborot texnologiyalari, chet tili bo‘yicha maxsus (ixtisoslashtirilgan) sinflar ochildi. Ushbu o‘zgarishlar ko‘lamida xususiy sektorning ham o‘z o‘rni ahamiyati bor. Tarmoqdagi keng ko‘lamli islohotlardan so‘ng ommalashgan faqat bir funksiyali katta-kichik o‘quv markazlari raqobatbardoshligi susaydi. Endi ular ham moddiy-texnik bazasini yangilab, xususiy maktablar ko‘rinishiga o‘ta boshladi. Asosiy omil raqobatbardoshlikni oshirish, davlat tomonidan tarmoqqa berilgan imtiyoz va imkoniyatlardan keng foydalanish hamda yanada jozibadorlikni oshirish bo‘ldi. O‘tgan besh yilda qurilgan davlat maktablaridan xususiy maktablar soni ko‘p. Biznesning oltin qoidasi bu — talab bor joyda taklif paydo bo‘ladi. Ushbu fakt ham ta’lim tizimidagi islohotlar nafaqat sohani, balki yurtdoshlarimizning ilm-fan, ma’rifatga intilishi, qiziqishini yuksaltirgani, dunyoqarashini o‘zgartirganini bildiradi. Ammo bu bilan islohotlar bir zum bo‘lsa ham to‘xtab qolgani yo‘q. Aksincha yangi loyiha va tashabbuslar yanada shiddat bilan davom etmoqda. Jumladan, o‘tgan yili tizimda katta o‘zgarish va yangilanishlar bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining pirovard maqsadi faqat ixtisoslashgan maktablar yoki xususiy ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshirishgina emas, balki mamlakatdagi barcha maktablarda ta’limning yuqori sifatini ta’minlash orqali xalqning savodxonlik darajasini ko‘tarish va O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirishdan iborat. Prezidentimiz boshchiligida 2025-yil 9-sentabrda bo‘lib o‘tgan maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sohadagi o‘zgarish va yangilanishlar belgilab berildi. Xususan, xalqaro standartlarga moslashtirilgan ta’lim tizimiga o‘tilishi qayd etildi. Bu o‘zbek yoshlarining nufuzli xalqaro universitetlarga hujjat topshirishidagi ayrim to‘siqlarni bartaraf etadi.

Shuningdek, yangi islohotlarga ko‘ra, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab yagona davlat imtihonlari joriy etiladi. Ya’ni maktab davrida o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab, kasb yoki oliy ta’limga yo‘naltirish uchun 9- va 11-sinf o‘quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari o‘tkaziladi. Bunda bitiruvchilar to‘plagan ballariga ko‘ra, o‘qishni oliy ta’lim muassasasi yoki texnikumda davom ettiradi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

Endi O‘zbekistonda maktablar faqat bilim beruvchi maskan emas, ularga o‘quvchilarni kasbga o‘rgatib, texnikumlarga yo‘naltiruvchi tuzilma sifatida ham qaralmoqda. Bu esa yoshlarning bandligini ta’minlash, ertangi hayotini yo‘lga qo‘yishi uchun yana bir imkoniyat degani. Maktablar baliq tutib bermaydi. O‘quvchilarning qo‘liga qarmoq tutqazadigan, ularning kelajagiga poydevori qo‘yiladigan maskanga aylanib bormoqda.

Bu ham maktabdagi o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ota-onalar avval farzandining maktabda ololmagan bilimidagi bo‘shliqni qo‘shimcha manbalar bilan to‘ldirgan bo‘lsa, endi ular maktabning o‘zidan ta’lim sifatini talab qila boshlaydi. Chunki maktabdagi bilimi va baholari o‘quvchilarning kelajagini belgilab beradi.



## Inson qadrini ulug‘lash o‘qituvchilar maqomini yuksaltirishdan boshlandi

Davlatimiz rahbari boshqaruvining ilk yillaridanoq maktabdagi ta’lim tizimini tub isloh qilish, buning uchun, birinchi navbatda, maqomini oshirish orqali o‘qituvchilarni maktabga qaytarish, ayniqsa, ular orasida erkak o‘qituvchilar sonini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratildi. Chunki Prezidentimiz kuchli davlat, yuksak jamiyat qurishni, avvalo, maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishdan boshlash kerak ekanini teran anglardi. O‘qituvchilar esa bu tizimning asl egalari edi.

Bir paytlar Yaponiya bosh vaziridan davlatning urushdan keyingi muvaffaqiyati siri nima ekani haqida so‘raladi. Shunda bosh vazir “Biz o‘qituvchilarga imperatorning hurmatini, elchining daxlsizligini va vazirning maoshini berdik”, deya javob beradi. To‘g‘ri, o‘xshatish bir oz noo‘rin bo‘lishi mumkin. Lekin O‘zbekiston ko‘p yillik ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishda turg‘unlik davrini boshdan kechirayotgan edi. Bundan esa, birinchi navbatda, umumiy o‘rta ta’lim tizimi jabr chekayotgandi. Boisi, o‘sha yillarda o‘qituvchilar bolalarga ta’lim-tarbiya beruvchi muhtaram ustoz emas edi. Hokimiyat vakillari uchun majlislarni to‘ldiradigan kishilar, yo bo‘lmasa, turli hasharlarga jalb qilinadigan byudjet vakillari edi. Soliqchilar uchun soliq yig‘uvchi, mahalla faollari uchun uyma-uy yurib, oilalarni yarashtiruvchi, oilaviy nizolarni bartaraf etuvchi kishilar edi. Bir so‘z bilan aytganda, ularning maktabdan boshqa hamma joyda ishlayotganini ko‘rish mumkin edi. Davlat idoralari vakillarining bunday munosabati yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar ongida ulug‘ kasb egalariga nisbatan noto‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirib qo‘ygandi. Ko‘p bor ota-onalarning maktab o‘qituvchisi bilan janjal qilishi, hatto o‘quvchilarning o‘z ustoziga qo‘l ko‘tarishi holatlari guvohi bo‘ldik o‘sha kezlarda.

Prezidentimiz o‘qituvchi va murabbiylarning mehnati yangi O‘zbekiston poydevori ekanini ta’kidlab, birinchi navbatda, ularni maktablarga qaytardi. Bu sohadagi majburiy mehnatga keskin va murosasiz yondashdi. O‘qituvchi va murabbiylarning xizmatidan moddiy manfaatdorligini orttirib, “o‘qituvchilar ming dollar oylik oladi”, deya so‘z berdi. Minbardan so‘zlangan bu gaplarga ko‘pchilik ishonqiramadi. Sababi o‘sha davrlarda pedagoglar bunday oylikni hatto orzu ham qilmas edi. Ammo bugunga kelib, sohadagi yangi tashabbus va loyihalar natijasida o‘qituvchilar bundan ham ko‘p oylik maosh olishiga puxta imkoniyat hozirlandi.

Albatta, bunday imkoniyat faqatgina ilm yo‘lida fidoyilik ko‘rsatayotgan kasb egalariga nasib etmoqda. Sababi guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek o‘z ustida ishlamaydigan, xizmat vazifasiga mas’uliyat bilan yondashmaydiganlar bilan muallimlik nomiga sharaf keltirayotganlar bir xil rag‘batlantirilishi noto‘g‘ri bo‘lardi, albatta. Shu bois, turli sertifikat, malakani belgilovchi imtihonlar joriy etildi. O‘qituvchilarning doimiy o‘z ustida ishlashi katta daromad topishiga asos bo‘lmoqda.

Oxirgi yillardagi islohotlar natijasida ilmga, ilm egalariga qaratilgan e’tibor ustozlar qadrini misli ko‘rilmagan cho‘qqiga olib chiqdi. Ularni mas’ullarning zug‘umidan qutqarib, moddiy ta’minotini yaxshiladi, jamiyatning eng hurmatli insonlariga aylantirdi. Islohotlar o‘zbek o‘g‘il-qizlarining mazkur sohaga qiziqishini oshirdi. Bugun o‘quvchilar o‘qituvchi bo‘lishni orzu qilyapti. Ota-onalar farzandlarining pedagog bo‘lish istagini rag‘batlantiryapti. Xalqimizning dunyoqarashi butkul o‘zgarib, kasb fidoyilarining qadriga yetadigan bo‘ldi. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz bu borada jamiyatga, xalqqa eng katta o‘rnak ko‘rsatdi.

Ortga qaytmas islohotlar natijasida yangi O‘zbekiston ilm-ma’rifat davlatiga aylanib bormoqda. Shu bois, Uchinchi Renessans poydevori aynan maktablarda qo‘yilishi shubhasiz.

**Sanjar ESHMURODOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**




# MAHORAT, BILIM VA KREATIVLIKNI UYG‘UNLASHTIRGAN MEDIA MAYDON

**Yurtimiz bo‘ylab davom etayotgan media haftalikning navbatdagi manzili Navoiy viloyati bo‘ldi. Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan haftalik sohadagi transformatsiya jarayonlarida tajriba maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.**



Navoiy viloyatida o‘tkazilgan haftalikda O‘zbekiston bosma mediasidagi kontent — amaliyot, muammo va yechim, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritishning asosiy yo‘nalishlari, tahliliy reportaj tayyorlash ko‘nikmalari kabi mavzularga e’tibor qaratildi. Shuningdek, Kontent markazi montaj ustalari tomonidan ushbu yo‘nalishdagi texnik yangiliklar bo‘yicha mutaxassislar bilan birgalikda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

— Haftalikka viloyatimizdan ommaviy axborot vositalarining 200 dan ziyod vakili taklif etildi, — deydi Navoiy viloyati hokimligi matbuot xizmati rahbari Shohira Raufboyeva. — Ijodkorlarimiz ichida yarim asrdan beri sohada ishlayotgan ham, endi bu maydonga “o‘rnimni topaman” deb kelayotgan yoshlarimiz ham bor. Kontent markazi tomonidan respublikamizdagi taniqli, tajribali, o‘tkir qalam sohiblari, katta ijodkorlar taklif qilingan. Jurnalistika doimiy o‘zgarishda, zamon bilan hamnafas, ba’zan zamondan ham ilgariroq yurish kerak bo‘ladi. Bu ishni amalga oshirish o‘z o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Shu nuqtayi nazardan, bu kabi haftaliklar juda zarur. Ushbu media haftalikda tuman, shahar hokimliklari, boshqarmalar va tashkilotlarning matbuot kotiblari ham faol qatnashdi.

Tadbirlar davomida jurnalistika, blogerlik, media savodxonlik va raqamli kontent yaratish kabi yo‘nalishlarda ishtirokchilar guruhlarga bo‘lingan holda mahorat darslarida ishtirok etdi. Mashg‘ulotlar OAV uchun kontent tayyorlash markazi vakillari, ekspertlar, mahoratli jurnalistlar tomonidan o‘tkazildi. Bosma va raqamli ommaviy axborot vositalarida kontent yaratish amaliyoti, uning zaif nuqtalari va yechimlari ochiq muhokama qilindi. Treninglarda islohotlarni yoritishda quruq faktlar bilan cheklanmay, tahliliy reportaj, inson taqdiri va raqamlar uyg‘unligi orqali mazmunni “jonlantirish” zarurligi ta’kidlandi.

— Matbuotda 55 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqdaman, — deydi “Yangi Qiziltepa” gazetasi mas’ul kotibi Bahodir Egamov. — Media haftalikda juda ko‘p narsalarni o‘rgandik. Gazeta yo‘nalishida ham internet va ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanish bo‘yicha zarur ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Gazetamiz haftada bir marta nashr etiladi. Shu kunning o‘zidayoq o‘quvchilar qo‘liga yetib boradi. Nashr targ‘ibotida internet imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish haqida tushuncha oldik.

Haftalikda faktcheking va axborotning ishonchliligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Ishtirokchilarga feyk axborotlarga qarshi kurashish, auditoriya ishonchini qozonish va samarali kommunikatsiya o‘rnatish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi. Mashg‘ulotlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yoritishda raqam va statistik ma’lumotlar bilan ishlash, ularni vizuallashtirish va auditoriyaga tushunarli formatda taqdim etish borasida tajriba almashildi.

Media haftalikda axborot sohasini tartibga soluvchi qonunchilik normalari, jurnalistlar uchun huquqiy xavf zonalari, strategik qarorlar qabul qilish masalalari ham keng yoritildi. Ijtimoiy mas’uliyat va kasb etikasi har qanday kontentdan ustun turishi lozimligi yana bir bor ta’kidlandi. Shuningdek, o‘tkazilgan test sinovlari orqali axborot xizmati xodimlarining kasbiy bilim darajasi baholandi.

Haftalik haqiqiy media atmosferasi, kreativ g‘oyalar va ilhombaxsh seminarlarga boy tarzda o‘tdi. Mahorat darslari, interaktiv muloqotlar va amaliy mashg‘ulotlar barchada katta qiziqish uyg‘otdi. Kontent yaratish, SMM va raqamli media, sun’iy intellekt imkoniyatlari, mediamadaniyat, krizis vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish kabi mavzular atrofida qizg‘in muhokamalar bo‘ldi. Ayniqsa, yoshlarning kreativ fikrlari, zamonaviy yondashuvlari va mediaga qiziqishi tadbirga yanada yuqori kayfiyat bag‘ishladi.



Haftalikning so‘nggi kunida tashkil etilgan mediaforum doirasida o‘tkazilgan seminar va treninglar haqida ijobiy fikrlar bildirildi. Kontent markazi loyihalari, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, viloyat hokimligi axborot xizmati taqdimotlari namoyish etildi. Shuningdek, haftalikda faol ishtirok etgan jurnalistlarga sertifikatlar topshirildi.

**G‘olib ABDUSALOMOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**G‘afur G‘ulom 9 yoshida otasidan, 12 yoshida onasidan yetim qoladi. Boz ustiga o‘sha paytda Birinchi jahon urushi boshlangan edi. Uch singilga g‘amxo‘rlik qilish katta farzand sifatida G‘afurning chekiga tushadi. Ko‘chada turli yumushlarni bajarib, oila boqish bilan bir qatorda avval eski maktabda, keyin rus-tuzem maktabida o‘qiydi.**



## 10-may — G‘afur G‘ulom tavallud topgan kun

# AVLODLARGA YELKA TUTGAN AKADEMIK






**Poytaxtimizdagi Muqimiy teatri binosiga deyarli tutash xonadon — shoir, yozuvchi, akademik G‘afur G‘ulom uy-muzeyi, zamonaviy tilda aytganda, eng qulay lokatsiyada joylashgan. Manzili Arpapoya ko‘chasi bo‘lgan ikki qavatli xonadonda adib 1944-1966-yillarda yashab, ijod qilgan.**

G‘afur G‘ulom asarlari kirib bormagan o‘zbek xonadoni bo‘lmasa kerak. Ijodkordan qolgan adabiy meros miqyosi va mohiyati nihoyatda katta. Vafotidan 17 yil o‘tib, 1983-yili adib xonadoni uy-muzeyga aylantirilgan. Uy dastlab qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlangani o‘sha davr arxitekturasining o‘ziga xosligidan so‘zlaydi.

Tarixiy maskan adabiy ekspozitsiya va memorial majmuani qamrab olgan. Maxsus stendlarda ijodkorning tarjimalari va akademik sohadagi faoliyati namunalari namoyish etilgan. Muzeyning uchinchi zalidan xalqning G‘afur G‘ulomga muhabbati va hurmatini namoyon etadigan eksponatlar o‘rin egallagan.

Ko‘rgazma zalida shoirning bolaligi, o‘smirligi o‘tgan XX asr boshlaridagi Toshkent tasviri, eski shahar manzaralaridan tortib, umrining so‘ngiga qadar bo‘lgan voqealar aks etgan. G‘afur G‘ulom savod chiqargan o‘sha davr maktablarining ko‘rinishi, o‘quv qurollari, bo‘yralar ekspozitsiyaga qo‘yilgan. Mis ko‘za, laganlar, moyjuvoz kabi ro‘zg‘or buyumlari butun oilaning kuniga yaragan bo‘lsa, siyohdon, kuldon, telefon, yozuv mashinkasi, dunyo yangiliklaridan xabardor qilib turadigan radiopriyomnik asosan adibga asqatgan.

Shoir yashagan uyning shinamgina maketi — ramziy xona ekspozitsiya zalining bir burchagidan o‘rin olgan. Uning toqli shifti, taxmonga yig‘ilgan ko‘rpachalar, cho‘g‘ solib ishlatilgan dazmol, qo‘yingki, barchasi ko‘p farzandli oilaning el qatori kun kechirganini aks ettirib turadi.

Murabbiylik, o‘qituvchilik, jurnalistik faoliyatidan guvohlik beruvchi suratlar G‘afur G‘ulomning bolalikdan tinib-tinchimagani, tirikchilik ko‘yida turli yumushlarni qilib ketaverganini yana bir bor yodga soladi. Yozuvchi asarlariga ishlangan suratlar, “Shum bola” qissasiga bag‘ishlangan bo‘lim, ayni paytda butun dunyoga mashhur bu asarning qo‘lyozmasi, uning “Dovdirash” nomli birinchi nashri, turli tillardagi tarjimasi adabiyot ixlosmandlari uchun qiziqarli bo‘lishi aniq.

Ekspozitsiyalar orqali G‘afur G‘ulomning ilmiy faoliyatiga doir ma’lumotlar adibning chindan-da birinchilardan bo‘lib akademiklik unvoniga munosib bo‘lganini ko‘rsatadi. 60-yillik yubileyi tantanalari aks etgan fotosuratlar esa hukumatning shoirga yuksak hurmatini tarixga muhrlagan. Turkman, qozoq ijodkorlari sovg‘a qilgan milliy kiyimlar nafaqat millatimiz, balki ko‘plab xalqlarning G‘afur G‘ulomga samimiy mehrini ifodalab turibdi. Chet el nashrlarida shoir haqida chop etilgan maqolalarni ko‘rib, yana bir karra faxrlanasiz.

Haykaltarosh Rayhon Shoabdurasulova “Shum bola” asariga ishlagan haykal — Qoravoyning tandirdan chiqib turgan holati asarga ishlangan filmni yodga soladi. Urush yillarida yozilgan she’rlar, yetimlik iztiroblari aks etgan suratlarning barchasi bizni G‘afur G‘ulom olamiga yaqinlashtiradi.

Memorial qism esa 6 xona: bolalar va kattalar yotoqxonasi, ijodxona, mehmonxona, dam olish xonasi va kutubxonadan iborat. 12 mingga yaqin eksponat joy olgan uy-muzeyga har yili o‘n minglab vatandoshimiz va xorijiy mehmonlar keladi.

“Men tug‘ilganimda otam G‘ulom Mirza Orif 35 yoshda, onam Toshbibi Shoyusuf 21 yoshda ekan. Otam adabiyotga juda qiziqar ekan. Uyimizga o‘zbek shoirlari va xattotlaridan Xislat, Shomurod kotib va boshqalar kelib yurganini es-es bilaman. Farg‘ona vodiysidan keladigan shoirlar ham: Muqimiy, Toshxo‘ja, Asiriy, Furqat, Muhyi va boshqalarning biznikiga ko‘p kelganini aytadi. Otam “Mirza” va “G‘ulom” taxalluslari bilan talay she’rlar yozgan. Onam ham o‘zbekcha, tojikcha adabiyotlarni o‘qib, anglay oladigan zehnli xotinlardan edi”, deb yozgan edi adib xotiralarida.

Dadasi G‘ulom Mirza Orif ba’zi manbalarda dehqon sifatida ko‘rsatilgan. Keles atroflarida o‘zining 5-6 tanob yerida ekin ekib, dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilik mavsumi bo‘lmagan paytlarda esa shaharda odamlarga ariza yozishda yordamlashgan. Uch tilni bilgani sabab ismining yoniga orif laqabi qo‘shib aytilgan.

G‘afur G‘ulom 9 yoshida otasidan, 12 yoshida onasidan yetim qoladi. Boz ustiga o‘sha paytda Birinchi jahon urushi boshlangan edi. Uch singilga g‘amxo‘rlik qilish katta farzand sifatida G‘afurning chekiga tushadi. Ko‘chada turli yumushlarni bajarib, oila boqish bilan bir qatorda avval eski maktabda, keyin rus-tuzem maktabida o‘qiydi.

Asli besh yoshidan eskicha yozuvda savodi chiqqanda yosh G‘afur kutubxonadan o‘zi yiqqan pullarga kitob sotib olib (o‘sha paytlari kutubxonalarda kitoblar sotilgan ham), hech qayerini shikastlamay o‘qir va qaytarib olib borsa, kitob sotuvchi boshqasiga almashtirib berar edi. Eksponatlar qatorida G‘afur G‘ulom arabiy imloda o‘qigan kitoblari asl nusxasida keltirilgan. Ular orasida Navoiyning “Devon”i hamda Jomiyning “Haft avrang”i ham bor.

Eksponatlar orasida G‘afur G‘ulomning shaxsiy kutubxonasidan 2000 ga yaqin kitobni Toshkentdagi 90-maktabga sovg‘a qilgani to‘g‘risida gazetada chop etilgan maqola ham bor. Shoir bolalarni juda yaxshi ko‘rganidan ijodida bolalarga bag‘ishlangan asarlarning ham alohida o‘rni bor. “Ikki bolalik”, “Bilaman”, “Seni Vatan kutmoqda” she’rlari, “Siz mening yoshligimsiz”, “Turg‘un va o‘rdak”, “Tongotar qo‘shig‘i”, “Bir g‘uncha ochilguncha” kabi bolalarga bag‘ishlangan she’riy to‘plamlari shular jumlasidan.

Uy-muzey eksponatlari o‘tmishni ko‘z oldimizda yaqqol gavdalantirib, moziy qa’ridan so‘zlaydi. Unga quloq tutsangiz, ko‘plab ishlarda o‘zini sinab ko‘rgan G‘afur G‘ulom 1923-yili bosmaxonada harf teruvchi, so‘ng ustozi Abdurahmon Sohiboyevning maslahati bilan 8 oylik pedagogik kursda o‘qib, O‘rdadagi “Urfon” o‘rta maktabi yonidagi bolalar uyida o‘qituvchi sifatida ishlagani ma’lum bo‘ladi. “G‘afur G‘ulom — ma’rifatparvar” ekspozitsiyasida adibning bolalar uyidagi faoliyatidan hikoya qiluvchi fotosuratlar va xat-hujjatlar o‘rin olgan.



Adib nazm bilan faylasuf shoir darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, nasrda “Shum bola” qissasi, “Mening o‘g‘rigina bolam” singari hikoyalari orqali xalq turmushi va ruhiyatini yaxshi biluvchi mohir nosir ekanini ham namoyish etgan. Uning kuldirib yig‘latadigan va yig‘latib kuldiradigan hajviy hikoya va qissalari el orasida mashhur.

“G‘afur G‘ulom — buyuk alloma” ekspozitsiyasida uning ilmiy faoliyati ko‘rsatib berilgan. Shoir o‘zidan oldin o‘tgan ijodkorlarning faoliyatiga qiziqish bildirib, asarlari ustida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan. Ular orasida Alisher Navoiy ijodi ustunlik qilardi. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni nasriy bayonini yozib, o‘zbek kitobxonlariga taqdim qiladi. Shuningdek, “Navoiy va bizning davr”, “Folklordan o‘rganaylik” tadqiqotlarini, “Jaloliddin dramasi haqida”, “Muqimiy” maqolalarini yozadi.

“Shum bola”, “Hasan Kayfiy” kabi hajviy asarlariga ishlangan karikaturalar, “Yodgor” qissasining ilk nashri, gazetalarda bosilgan varianti, “Ikki akt” dostonining qo‘lyozma va matbuotda ilk e’lon qilingan nusxalari “G‘afur G‘ulomning nasriy ijodi” ekspozitsiyasidan o‘rin olgan.

“O‘zbekni jahonga tanitgan shoir” ekspozitsiyasida adib nafaqat o‘zbek shoirlari, balki qozoq, rus, qirg‘iz, tojik shoirlari bilan ham yaqin aloqada bo‘lgani, ular ijodiy safarlarda tez-tez ko‘rishib turgani, ijodiy hamkorlik qilgani aks ettirilgan.

Adibning qaysi qardosh til vakilini ko‘rsa, o‘sha tilda suhbatlashib ketadigan darajada




kirishimli bo‘lgani haqida O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir bunday yozadi: “Men G‘afur G‘ulom bilan talay gurunglarda, to‘ylarda, yig‘inlarda, hasharlarda, safarda va mehmondorchiliklarda bo‘lganman. U hayotni bilar, odamlarni bilar edi, adab va udumdan to‘la xabardor, shevalarni bilar, qardosh tillarni bilar, turkman duch kelsa — turkman, tatar uchrasa — tatar, Nozim Hikmat kelsa — turk, qozoq ro‘baro‘ bo‘lsa — qozoq, tojik davrada — tojik, Aleksey Surkov ko‘rinib qolsa yo mehmon bo‘lsa — rus... U nechog‘liq munis, nechog‘liq mushfiq, dilkash, hozirjavob, xushta’b, xushchaqchaq, hazilkash (o‘z o‘rnida), suhbati qoyilmaqom, sadoqatli do‘st”.

Eksponatlarda G‘afur G‘ulomning o‘zbek tarjimachiligiga qo‘shgan hissasi ham beqiyos ekani to‘laqonli ochib berilgan. Pushkin, Lermontov, Nozim Hikmat, Shota Rustaveli, Nizomiy Ganjaviy, Shekspir, Dante, Pyer Bomarshe, Lope de Vega va jahon adabiyotining boshqa vakillari asarlarini o‘zbek kitobxonlariga taqdim qilgan. Shekspirning “Otello” va Nozim Hikmatning “Bir sevgi afsonasi” asarlari aynan G‘afur G‘ulom tarjimasida teatr sahnasiga olib chiqilgan.

Shoir Ikkinchi jahon urushi davrida ham barakali ijod qilgan, o‘z da’vatlari bilan jangchilar va front ortidagilarni ruhlantirgan. “Sen yetim emassan”, “Seni kutyapman, o‘g‘lim!”, “Vaqt”, “Kuzatish”, “Ayol”, “Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak” she’rlarini yozgan. “Seni kutyapman, o‘g‘lim!” she’rida shoir front ortida qahramonona mehnat qilgan otalarning sabri va kuchini madh etadi. Shuningdek, “Sharqdan kelmoqdaman” to‘plamidan joy olgan “Bahaybat”, “G‘alabachilar qo‘shig‘i”, “Xotin” she’rlarining mohiyatini ham ayni mavzu tashkil qiladi.

Urushdan keyingi yillardagi “Yangi she’rlar”, “O‘zbekiston olovlari”, “Onalar”, “O‘zbek xalqi g‘ururi”, “Tong qo‘shig‘i”, “Yashasin, tinchlik!”, “Bu — sening imzong”, “Dunyo minbaridan” nomli she’riy to‘plamlarida tinchlik qadri, o‘zbek xalqining mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida kuylagan.

Sharq mumtoz she’riyatini ham, Yevropa va rus lirikasini ham mukammal bilgan ustoz shoir ijodida yangicha to‘lqin, alohida oqim, o‘ziga xos uslub mujassam. G‘arbu Sharq ohangini o‘ziga singdirgan ushbu mushtaraklikka turkona xarakterning qorishuvi jahon poetik madaniyati sahnida o‘zbek xalqining ham munosib o‘rin egallashiga sabab bo‘ldi. Uni fidoyi, bolajon, mehnatkash, insonparvar xalqimizning badiiy timsolini ham she’rda, ham nasrda yoritgan buyuk so‘z ustasi, deyish mumkin.

Uy-muzey hovlisining yuqori qismida shoirning 1983-yilda tayyorlangan haykali qad rostlagan. Ayni kunlarda tavalludiga 123 yil to‘lgan akademik G‘afur G‘ulom siymosi bugungi yosh, zabardast, ulkan maqsadlarni ko‘zlagan avlodlarga boqib, “Siz, axir, osmonni olmoq bo‘lsangiz, Ne uchun yelkamni tutib bermayin”, deb turibdi go‘yo...

**Nodir MAHMUDOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

---

## Festival



**Boysun insoniyat sivilizatsiyasiga beshik bo‘lgan zamin. Bu go‘shada tarixiy taraqqiyotning ilk bosqichlaridanoq jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati rivoj topgan. Tog‘lari kabi urf-odat va an’analari ham mustahkam, qadimiy.**

# “Boysun bahori” — MILLAT RUHIYATI, QADRIYATLAR VA O‘ZLIK TANTANASI

Joriy yil may oyining dastlabki o‘n kunligida tashkil etilgan “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali ochiq osmon ostidagi do‘stlik, san’at, milliy qadriyatlar bayrami sifatida xotiralarga muhrlandi. Xalqimizning boy madaniyatini yana bir karra dunyoga namoyish etdi. Shu bilan “Boysun bahori”ning navbatdagi — o‘n uchinchi mavsumi ham o‘tdi.

— Milliy qadriyatlarimizni ulug‘lab, yosh avlod ongu shuuriga singdirish, dunyoga keng tarannum etishga alohida e’tibor qaratilyapti. Har ikki yilda bir marta o‘tkazilayotgan “Boysun bahori” festivali ham bunga yaqqol misol, — deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Denov tumani bo‘linmasi rahbari Toshtemir Turdiyev. — Festivalda 40 dan ortiq davlatdan 100 dan ziyod folklor jamoalari, qolaversa, sayyohlar, xorijiy delegatsiyalar ishtirok etdi. Asosiy tadbirlar Boysun tumanining Bibishirin mahallasida qurilgan sayyohlik majmuasida o‘tkazildi. Mana shu kompleksning bunyod etilganining o‘ziyoq yurtimizdagi yangilanishlar jarayoni qanchalik samarador va keng ko‘lamda kechayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu maydonda konsert tomoshalari, ko‘rgazmalar, shahar va tumanlar qo‘rg‘onlari, yirik amfiteatr joylashgan. Bayramda folklor san’ati namoyishi, milliy sport va xalq o‘yinlariga keng o‘rin berildi. Tashkil etilgan qo‘rg‘onlarda vohaning har bir hududiga xos udumlar va turfa an’analar namoyish etildi. Hunarmandlik ko‘rgazmalari voha ahli ajdodlar merosini qalb qo‘rida avaylab asrab, asrlar davomida rivojlantirganidan dalolat berdi. Turizm majmuasida aylanasi besh metrli ulkan tandir o‘rnatilib, boysunliklarning tadbirga to‘yonasi sifatida qadimiy noyob taom — tandirgo‘sht tayyorlandi. U xorijdan kelgan mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Festivalning xalqaro ko‘rik-tanlovida mamlakatimizning eng sara folklor jamoalari bilan birga 40 ga yaqin davlatdan kelgan san’atkorlar mahorati va folklor san’atini namoyish etdi. Ularning chiqishini malakali hakamlar hay’ati baholab bordi.

Xalqaro festivalning folklor yo‘nalishi g‘oliblari taqdirlandi. Jumladan, Surxondaryo viloyati “Boysun” folklor-etnografik jamoasi birinchi, Buxoro viloyati “Jondor” folklor-etnografik jamoasi va Belarus Respublikasining “Belaruski gassines” jamoalari ikkinchi o‘rinni egalladi.

Navoiy viloyati “Xushanzamon” folklor-etnografik xalq jamoasi, Pokiston Islom Respublikasi “Shaamemastana Bazm Boyz”, Toshkent viloyati “Ko‘zmunchoq” folklor-etnografik jamoalari uchinchi o‘ringa munosib ko‘rildi.

“Boysun bahori” xalqaro folklor festivalining taqdirlash marosimida milliy xalq o‘yinlari va tomosha san’ati yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalarga ham pul mukofotlari va statuetkalar tantanali topshirildi. Jizzax viloyati “Bog‘don” folklor-etnografik xalq jamoasi, Rossiya Federatsiyasi “Radoves” folklor jamoasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Meros” folklor-etnografik xalq jamoasi g‘olib jamoalar sifatida e’tirof etildi.

Festival doirasida kurash musobaqasi ham o‘tkazildi. Unda vazn toifalari bo‘yicha g‘oliblar aniqlanib, munosib taqdirlandi. Jumladan, Bekmurod polvon Oltiboyev “Kobalt” avtomobilini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Muhammadkarim Xurramov va Shermuhammad Jandriyev faxriy o‘rin sohiblari sifatida mukofotlandi.

Shuningdek, tadbir doirasida ikki kun davomida jamoaviy va yakkalik yo‘nalishlarda uloq-ko‘pkari musobaqalari ham yuqori saviyada, qizg‘in va murosasiz bahslarga boy tarzda bo‘lib o‘tdi. Musobaqa yakunlariga ko‘ra, g‘olib jamoalar aniqlanib, ularga munosib sovrinlar topshirildi. Jumladan, surxondaryolik chavandozlar birinchilikni qo‘lga kiritib, bosh sovrin — “Kobalt” avtomashinasiga ega chiqdi. Ikkinchi o‘rin esa Toshkent viloyati jamoasiga nasib etdi.

Festivalda sayyohlarning vohadagi noyob arxeologik va tarixiy obidalar, boshqa turistik maskanlar bilan yaqindan tanishishiga qulay imkoniyat yaratildi.

— Boysundagi festivalda birinchi marta qatnashishim. Undagi muhit, rang-baranglik va samimiyatdan katta taassurot oldim. Festival nihoyatda go‘zal o‘tdi. U o‘zida milliy liboslar, kuy-qo‘shiqlar va an’analarni uyg‘unlashtirgani bilan ahamiyatli, — deydi italiyalik sayyoh Noeme Bello. — Shu tadbir tufayli O‘zbekistondagi madaniyatni yaqindan his qildik. Xalqingizning boy merosi va mehmondo‘stlik ruhini teran angladik. Men barchaga bu festivalga, albatta, kelishni tavsiya qilaman. Bu shunchaki tomosha emas, balki qiziq va o‘ziga xos madaniyatlarni his etish uchun ajoyib muhit.

Festival dasturiga muvofiq, tantanali ochilish va yopilish marosimlarida xalq ansambllari va badiiy jamoalar, baxshi-oqinlar chiqishlariga keng o‘rin berildi. Dron va lazer shoulari, mushakbozlik, taniqli san’atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari mehmonlarni hayrat va hayajonga soldi.

**Sarvar TO‘RAYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546.
30570 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05